O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

“RAQAMLI O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati va ilmiy doiralar vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

Quyidagilar:

2020 — 2022-yillarda hududlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari 2 — 14-ilovalarga muvofiq;

2020 — 2022-yillarda tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari 15 — 21-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, 2020 — 2022-yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida:

aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkaziladi;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;

587 ming nafar kishini, shu jumladan “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish tashkillashtiriladi;

iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;

hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish uchun tegishli oliy ta’lim muassasalari biriktiriladi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o‘qitiladi.

2. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklarining 29 ta namunaviy tumanlarda (shaharlarda) 2020-yilda va 2021-yil I choragi yakuniga qadar raqamli transformatsiya

qilish loyihalarini koʻzda tutuvchi “yoʻl xarita”larini 2a — 14a, 2b — 14b hamda 2v, 8v va 12v-ilovalarga muvofiq amalga oshirish toʻgʻrisidagi taklifi maʼqullansin.

3. “Raqamli Oʻzbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish boʻyicha muvofiqlashtirish komissiyasi (keyingi oʻrinlarda — Muvofiqlashtirish komissiyasi) 22-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin va quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan Strategiya, hududlar va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari, “yoʻl xarita”larida koʻzda tutilgan loyiha va chora-tadbirlarning toʻliq hajmda amalga oshirilishini taʼminlash, shuningdek, ularning oʻz vaqtida bajarilishini tizimli nazorat qilish;

har oyda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish boʻyicha rejalashtirilgan loyihalar va chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan hisobotlarini tinglash hamda ularning javobgarligi masalasini koʻrib chiqish;

doimiy monitoring asosida elektron davlat xizmatlarini koʻrsatishni yanada takomillashtirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatidagi funksional jarayonlar va tartib-taomillarni optimallashtirish boʻyicha choralar koʻrish;

sunʼiy intellektga asoslangan loyihalarning oʻz vaqtida va sifatli ishlab chiqilishi hamda amaliyotga keng joriy etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirib borish;

raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni koʻrib chiqish va ularni amalga oshirish toʻgʻrisida qarorlarni qabul qilish, shuningdek, zarur hollarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda “yoʻl xarita”lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Elektron hukumat tadqiqoti” hisobotida Oʻzbekiston Respublikasining reytingini yaxshilash yoʻnalishidagi ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirib borish hamda mamlakatimizni ushbu hisobotda 2030-yilga qadar Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi boʻyicha davlatlar roʻyxatida birinchi 30 talikka kiritish;

Raqamli texnologiyalar vazirligi taklifiga asosan “Elektron hukumat” tizimining maʼlumotlarni qayta ishlash markaziga joylashtiriladigan davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlarining axborot tizimlari va resurslari roʻyxatini tasdiqlash va ushbu roʻyxat asosida ularning faoliyatini tizimli ravishda monitoring qilib borish.

Bunda, Raqamli texnologiyalar vazirligi Muvofiqlashtirish komissiyasi ishchi organi vazifasini amalga oshiradi.

4. Muvofiqlashtirish komissiyasi (A. Aripov) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi va viloyatlar hokimlari bilan birgalikda bir hafta muddatda 29 ta namunaviy tumanlarda (shaharlarda) raqamli transformatsiya qilish “yoʻl xarita”larini amalga oshirish boʻyicha quyidagilarni nazarda tutgan holda hududiy ishchi guruhlarni shakllantirsin:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, uning tasarrufidagi tashkilotlar va hududiy boshqarmalarining masʼul rahbarlarini tegishli tumanlarga (shaharlarga) biriktirish;

har oʻn kunlikda ishchi guruhlar tomonidan qabul qilingan raqamli transformatsiya qilish “yoʻl xarita”larida nazarda tutilgan loyihalarni amalga oshirish samaradorligi va joylarda oʻtkazilayotgan tadbirlarning amaliy ahamiyatini baholash;

ixtisoslashtirilgan oliy oʻquv yurtlari va raqamli texnologiyalarni oʻqitish markazlari negizida davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining masʼul rahbarlarini oʻqitish va malakasini oshirishni tashkil etish.

5. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Maktabgacha taʼlim vazirligi, Xalq taʼlimi vazirligi va Sogʻliqni saqlash vazirligi bilan birgalikda 2020-yil yakuniga qadar 13 ta namunaviy tumanlarda (2a — 14a-ilovalar) IT-infratuzilmasini yaratishni, kompyuter uskunalari bilan jihozlashni nazarda tutgan holda maktabgacha va umumtaʼlim maktablari hamda sogʻliqni saqlash muassasalarini raqamlashtirishni yakunlash boʻyicha choralar koʻrish, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish va masʼul xodimlarni oʻqitishni tashkil etsin.

Belgilansinki, ushbu muassasalarni raqamlashtirish Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va tasarrufidagi tashkilotlarning oʻz mablagʻlari

hisobidan, yetishmayotgan qismida esa — mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

6. Belgilab qo‘yilsinki, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalari 23-ilovaga muvofiq biriktirilgan hududlar va tarmoqlarga ilg‘or texnologiyalar va IT-yechimlarni transfer qilishda, raqamli iqtisodiyot sohasidagi loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun yetakchi kompaniyalarni jalb qilishda har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatadilar.

7. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2020-yil 1-noyabrdan boshlab investitsiya loyihalari hamda jalb etilayotgan xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari va donor mamlakatlar mablag‘lari umumiy miqdorining 5 foizdan kam bo‘lmagan qismi “raqamli” komponentlarga yo‘naltirilishini ko‘zda tutsin.

8. Quyidagilarni nazarda tutuvchi 2020 — 2022-yillarda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xarita”si 24-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

a) elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha:

2021-yil 1-yanvardan boshlab tajriba tariqasida “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi doirasida jismoniy shaxsga identifikatsiya ID-kartasini berishda davlat organlari va tashkilotlari bilan o‘zaro elektron munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun uning shaxsiy kabineti shakllantiriladi;

2021-yil 1-iyuldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portalida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish, patentlar, dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro‘yxatga olish, jamoat transporti harakati, yer resurslaridan foydalanish va boshqa umumfoydalanishdagi statistik ma’lumotlar onlayn rejimda joylashtirib borilishi ta’minlanadi;

2021-yil 1-avgustdan boshlab jismoniy va yuridik shaxslarga barcha belgilangan davlat bojlari, yig‘imlar, jarimalar va boshqa majburiy to‘lovlarni elektron to‘lov tizimlaridan foydalangan holda onlayn rejimda to‘lash imkoniyati taqdim etiladi;

b) raqamli industriyani rivojlantirish bo‘yicha:

2020-yil 1-noyabrdan boshlab Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidenti maqomini axborot texnologiyalariga o‘qitish, apparat-dasturiy vositalarni ishlab chiqish va realizatsiya qilish, robototexnika, Internet tarmog‘i orqali axborot xizmatlarini eksport qilish, shuningdek, ma’lumotlarni saqlash va hisoblab qayta ishlash sohasida xizmat ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblangan yuridik shaxslar olishi mumkin bo‘ladi;

2022-yil 1-yanvarga qadar masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish, omonatlar va hisob raqamlarni ochishni o‘z ichiga olgan keng turdagi onlayn xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi yakuniga yetkaziladi;

v) raqamli ta’limni rivojlantirish bo‘yicha:

2021-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolar tomonidan tizim boshqaruvi, ma’lumotlar bazasi va “bulutli” platformani boshqarish, axborot xavfsizligini ta’minlash va boshqa talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarining 50 foizgacha bo‘lgan qismini qoplash tizimi joriy etiladi;

2021-yil 1-sentabrga qadar har bir tuman va shaharda mavjud infratuzilma obyektlari negizida keng aholi qatlamlari, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari ochiladi;

2023-yil yakuniga qadar barcha tuman va shaharlarda o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishi va kompyuter dasturlash asoslarini o‘rganishi uchun mavjud ta’lim muassasalari negizida 200 dan ortiq informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi;

g) raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha:

2022-yil yakuniga qadar har bir aholi punkti 10 Mbit/sdan kam bo‘lmagan ma’lumotlarni uzatish tezligidagi Internet tarmog‘iga ulanish imkoniyati bilan ta’minlanadi;

2022-yil 1-yanvarga qadar barcha mashhur sayyohlik joylari yuqori tezlikdagi Internet bilan ta’minlanadi.

9. Belgilab qo‘yilsinki, 2023-yildan boshlab, Strategiya erishilgan natijalar va maqsadli ko‘rsatkichlar hamda tegishli davr uchun raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirishning asosiy

yo‘nalishlaridan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan alohida tasdiqlanadigan ikki yilga mo‘ljallangan dasturlar asosida amalga oshiriladi.

10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi barcha uchun ochiq bo‘lgan mahalliy dasturiy mahsulotlar va IT-xizmatlar elektron platformasini yaratish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin:

mahalliy IT-kompaniyalar va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar hamda ularning mahsulotlari va xizmatlarining yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, ularga o‘z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda ilgari surishda ko‘maklashish;

davlat organlari va tashkilotlarida axborot tizimlari va boshqa dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha rejalashtirilayotgan loyihalar to‘g‘risida ma’lumotlarni e’lon qilish;

mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning amaliy masalalarini hal qilish hamda axborot texnologiyalari sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish jarayonida samarali va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish.

11. 2020-yil 1-noyabrdan boshlab yopiq binolarda aloqani tashkil etish maqsadida mobil aloqa operatorlari uchun ajratilgan radiochastota doirasida 500 mVt dan oshmaydigan quvvatda ishlaydigan baza stansiyalaridan foydalanishga ruxsatnomani rasmiylashtirish bo‘yicha talablar (tasniflangan obyektlar yaqinida o‘rnatiladigan mobil aloqa baza stansiyalari bundan mustasno) bekor qilinsin.

12. 2020-yil 1-noyabrdan boshlab mobil aloqa operatorlari uchun:

telekommunikatsiya qurilmalari va inshootlarining qurilish-montaj, rekonstruksiya, sinovdan o‘tkazish va integratsiya qilish ishlarini yakunlash hamda tijorat maqsadida foydalanishni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, telekommunikatsiya qurilmalari va inshootlarining konstruksiyasini o‘zgartirish, mavjud qurilmalardagi hamda telekommunikatsiya liniyalari va inshootlaridagi uskunalarni kengaytirish bo‘yicha xabardor qilish tartibi joriy etilsin;

radioelektron qurilmalar, asbob-uskunalar va boshqa qurilmalarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish ruxsatnomasini, sotib olish, o‘rnatish, loyihalash va qurish uchun ruxsatnoma olmasdan, belgilangan tartibda rasmiylashtirish huquqi berilsin;

Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra 2022-yil 1-sentabrdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining buyurtmalari asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida mobil aloqa operatorlari tomonidan abonentlarga ommaviy SMS-xabarlarni bepul tarqatish xizmatlari soliq solish maqsadida iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydigan xarajatlar deb e’tirof etiladi.

13. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Adliya vazirligining mazkur vazirliklar va ularning tasarrufidagi tashkilot va bo‘linmalar negizida quyidagilarni nazarda tutuvchi “Raqamli idora” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha taklifiga rozilik berilsin:

a) 2022-yil 1-yanvarga qadar:

qog‘ozsiz elektron hujjat almashinuvi va ish yuritishni tashkil qilgan holda barcha ma’muriy tartib-taomillarni va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish;

faoliyatning ochiqligi va shaffofligi hamda aholi punktlarida davlat xizmatlaridan foydalanishning kafolatlanganligini ta’minlash;

idoralararo elektron hamkorlik jarayonlarini avtomatlashtirish;

b) “Raqamli idora” loyihasini amalga oshirishning amaliy tajribasini boshqa davlat organlari va tashkilotlarida ularning faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda joriy etish.

14. Elektron hukumat imkoniyatlarini yanada kengaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha qulayliklarni yaratish hamda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash maqsadida:

Elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 25-ilovaga muvofiq;

Davlat boji, yig‘im, jarima va boshqa to‘lovlarni to‘lash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi 26-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi mas’ul vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda mazkur Farmonga 25 va 26-ilovalarda nazarda tutilgan tadbirlarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlasin.

15. 2020-yil 1-noyabrdan boshlab barcha vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida amaldagi rahbar o‘rinbosarlaridan biriga raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosar (Chief Digital Officer) vakolatlari yuklatilsin va quyidagilar ularning ustuvor vazifalari etib belgilansin:

axborot tizimlari va resurslarini keng joriy etishni nazarda tutuvchi idoraviy raqamli transformatsiya dasturlarini ishlab chiqish va o‘z vaqtida amalga oshirish;

elektron davlat xizmatlarini mobil qurilmalar va elektron hamkorlikning boshqa shakllari orqali ko‘rsatishni yanada kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

idoralar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, Internet tarmog‘ida ochiq ma’lumotlarni va boshqa axborotlarni joylashtirib borish bo‘yicha choralar ko‘rish;

sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish;

idoraviy raqamli infratuzilmaning axborot xavfsizligini, shuningdek, elektron ma’lumotlar va hujjatlarning himoyasini ta’minlash hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga mas’ul tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining bilim va malakasini oshirib borish.

Raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlarning tegishli yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish Raqamli texnologiyalar vazirligiga yuklatilsin.

16. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan loyihalarning o‘z vaqtida va keng ko‘lamda amalga oshirilishini ta’minlaganligi uchun, shuningdek, raqamli transformatsiya holatini reyting baholash natijalariga ko‘ra davlat organlari, ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari)ning rahbarlari va ularning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlariga har oyda oylik maoshining 30 foizi miqdorida ustama to‘lanadi. Mazkur xodimlarga ustama to‘lash tegishli tashkilotlarning mehnatga haq to‘lash fondi hisobidan va uning doirasida amalga oshiriladi;

davlat organlari va tashkilotlari har yili iyun oyi yakuniga qadar raqamlashtirish bo‘yicha o‘z faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlarini Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishgan holda shakllantiradi;

har chorakda raqamlashtirish bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlariga erishilganligi, shuningdek, raqamli transformatsiya holatini reyting baholash natijalari yuzasidan Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan beriladigan xulosa rahbarlar va ularning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlariga har oyda ularning oylik maoshiga mazkur bandda ko‘zda tutilgan ustamani to‘lash uchun asos bo‘ladi.

17. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda har yili 1-dekabrga qadar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarning maqsadli dasturlarini Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashiga tasdiqlash uchun kiritib borsin hamda ushbu sohada alohida e’tiborni quyidagilarga qaratsin:

axborot texnologiyalari sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish;

iqtisodiyot tarmoqlarida virtual va to‘ldirilgan reallik, sun’iy intellekt, kriptografiya, mashina o‘rganishi, katta ma’lumotlarni tahlil qilish va “bulutli” hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish;

istiqbolli innovatsion ishlanmalar va startap-loyihalarini amalga oshirish hamda ularni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini qo‘llab-quvvatlash.

Belgilab qo‘yilsinki, maqsadli dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida, shuningdek, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

18. Mazkur Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

a) davlat organlari va tashkilotlarining raqamlashtirish bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlari — har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar “NIS.UZ” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ushbu Farmon bilan tasdiqlangan Strategiya, dasturlar va “yo‘l xarita”lari hamda idoraviy raqamli transformatsiya dasturlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishiga doir ma’lumotlar kiritib borilishi uchun mas’ul etib belgilanadi;

b) raqamli texnologiyalar vaziri Sh. Shermatov:

mas’ul davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini idoralararo muvofiqlashtiradi, ularning faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish holatini baholaydi hamda muntazam ravishda raqamlashtirish bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlarining hisobotlarini eshitishni tashkil etadi;

har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar ushbu Farmon bilan tasdiqlangan Strategiya, dasturlar va “yo‘l xarita”lari hamda idoraviy raqamli transformatsiya dasturlari ijrosi to‘g‘risida umumlashgan tahliliy ma’lumotlarni Muvofiqlashtiruvchi komissiyaga kiritadi;

v) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig‘i;

Strategiyaning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish ustidan tizimli nazoratni tashkil etadi, shuningdek, Muvofiqlashtiruvchi komissiya yig‘ilishlarida mas’ul vazirlik va idoralar rahbarlarining raqamlashtirish sohasidagi faoliyatini tanqidiy ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar kiritadi;

har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga raqamlashtirish bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlarining faoliyati natijadorligidan kelib chiqib, ularni rag‘batlantirish yoki intizomiy, shu jumladan egallab turgan lavozimidan ozod qilishgacha bo‘lgan choralarni ko‘rish bo‘yicha takliflarni kiritadi.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ushbu Farmonning maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish bo‘yicha ishlarni tashkil etsin.

20. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

21. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.A. Gulyamov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 5-oktabr,
PF-6079-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga
1-ILOVA

“Raqamli O‘zbekiston — 2030”

STRATEGIYASI

1-bob. Umumiy qoidalar

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta’minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Strategiya O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari hamda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron

hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

2-bob. Raqamli rivojlanishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari

2.1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O‘zbekiston Respublikasining chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish;

taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchliligini ta’minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta’minlash uchun ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini kengaytirish;

mobil va yo‘ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag‘batlantirishning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish;

mobil aloqa tarmog‘ini 4G va 5G texnologiyasi bo‘yicha rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog‘i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish;

barcha aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni optik va mobil keng polosali xizmatlardan foydalanish tarmoqlari bilan qamrab olish;

avtomagistral va temir yo‘llari, turistik obyektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta’minlash;

Internet jahon axborot tarmog‘iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish;

geografik joylashuvidan qat’iy nazar, fuqarolarning o‘sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish;

iste’molchilarga televizion signalni uzatish, yer usti televizion eshittirish, kabel televideniyesi, IP-televideniye, ma’lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to‘liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirish;

“bulutli” hisoblashlar asosida ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta’minlash;

bozorning erkin rivojlanishi imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish;

elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarini idoralararo ma’lumotlar uzatish tarmog‘iga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish;

mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va elektron davlat xizmatlarining foydalanuvchanligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish;

davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish doirasida “xizmat sifatida dasturiy ta’minot”, “xizmat sifatida platforma”, “xizmat sifatida infratuzilma” texnologiyalarini keng joriy etish;

shahar infratuzilmasini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali transport logistikasi, shahar infratuzilmasi, shahar muhitining sifati, shahar rivojlanishini boshqarish samaradorligi, jamoat, biznes va yashash joylari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun “aqlli” va “xavfsiz” shahar loyihalarini izchil amalga oshirish;

keng polosali ulanishni rivojlantirishning texnologik asosi iste’molchilarga asosiy va qo‘shimcha xizmatlarni, shu jumladan texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish xizmatlarini, aholining hayotini qo‘llab-quvvatlashda aqlli tizimlarni joriy etishning bir qismi sifatida individual

infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga bosqichma-bosqich kirishni ta’minlash uchun yagona infratuzilma yordamida multiservis tarmoqlarini rivojlantirish;

mavjud aloqa (simsiz va optik), simli va simsiz aloqa texnologiyalari va tizimlari, shuningdek, yangi geografik axborot va navigatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘z ichiga olgan aloqa va navigatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;

aloqa operatorlari o‘rtasida raqobatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

olis hududlarni yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash maqsadida yo‘ldosh aloqa texnologiyalarini joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

2.2 Raqamli hukumatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Raqamli hukumatni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori bo‘lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich 2030-yilga qadar elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 90 foizdan oshirish, kompozit va proaktiv tarzda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sonini kamida 400 taga yetkazish;

elektron hukumat axborot tizimlarini ishlab chiqishda yagona texnologik yondashuvni ta’minlash, shu jumladan ochiq kodli dasturiy ta’minotdan foydalangan holda davlat organlarining idoraviy tizimlarini ishlab chiqish xarajatlarini qisqartirish;

iste’molchilar talabidan kelib chiqqan holda ochiq davlat ma’lumotlarini ishlab chiqish, shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, “ochiq ma’lumotlar”ga asoslangan davlat mobil ilovalari va dasturlari ulushini oshirish;

davlat ma’lumotlarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish orqali davlat boshqaruvida ma’lumotlarni to‘plash va raqamlashtirish uchun kerak bo‘lgan barcha resurslarni yaratish orqali asoslangan qarorlarni qabul qilishni avtomatik ravishda shakllantirish;

davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish, shu jumladan ma’muriy tartibotlarni avtomatlashtirish orqali talab qilingan ma’lumotlar va hujjatlarning sonini qisqartirish;

litsenziyalar va ruxsatnomalar berish bilan bog‘liq barcha tartib-taomillarni optimallashtirish va ularni real vaqt rejimida ishlovchi elektron shaklga o‘tkazish;

elektron hukumat tizimi doirasida elektron davlat xizmatlaridan aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun shaxsni masofadan tasdiqlashning qo‘shimcha shakl va usullarini joriy etilishini nazarda tutuvchi raqamli identifikatsiyalashni rivojlantirish;

aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektron hukumat tizimlari orqali yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan axborot yetkazish va xabardor qilish imkoniyatini;

aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari va tashkilotlariga murojaatlarini ko‘rib chiqish holatini onlayn rejimida kuzatish samarali tizimlarini (“treking”) joriy etish;

davlat organlarining faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash tizimini joriy etish;

aholining takliflari va mulohazalarini, shuningdek, aholi fikri asosida amalga oshirilayotgan loyihalar ulushini oshirishni hisobga olgan holda qonun hujjatlari loyihalarini onlayn tarzda muhokama qilishda fuqarolar va tadbirkorlar ishtirok etishi mexanizmini yanada takomillashtirish;

davlat organlari va boshqa subyektlarning barcha xizmatlari uchun bojlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarni onlayn to‘lash va navbatlarni avtomatlashtirish axborot tizimlari komplekslarini yaratish;

arxiv hujjatlarini raqamlashtirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish va ochiq ma’lumotlarni shakllantirish doirasida zarur bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlarining ma’lumotlar bazalarida ma’lumotlarni shakllantirish;

idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini, elektron hukumat xizmatlarini ko‘rsatuvchi davlat organlarining axborot resurslarini, markaziy ma’lumotlar bazalarini xavfsiz saqlash va ularning integratsiyasini ta’minlaydigan, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining turli axborot tizimlaridagi turli tarqoq hamda takroriy ma’lumotlarni keyinchalik tahliliy qayta ishlash imkoniyatini yaratadigan Elektron hukumatning ma’lumotlarini qayta ishlash markazini yaratish;

jamiyat hayotining barcha jabhalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, shu jumladan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha raqamli infratuzilmani shakllantirishni va elektron hukumat axborot tizimlarini keng joriy qilishni yanada jadallashtirish:

sog‘liqni saqlash, bunda tibbiyot sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va elektron xizmatlarni taqdim etishni hisobga olgan holda milliy integratsiyalashgan axborot tizimini joriy etish;

davlat organlari veb-sayti, portal va boshqa muhim axborot resurslaridan nogironligi bo‘lgan shaxslar qulay foydalana olish imkoniyatlarini kengaytirish;

fuqarolarning ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha murojaati, mahallalardagi oilalar va aholi ma’lumotlarini yuritish hamda mahallalarda aholi bilan ishlash jarayonlari “Raqamli mahalla” platformasi orqali amalga oshirish;

Yagona portalda joriy etilgan raqamli xizmatlarni xatlovdan o‘tkazish hamda ulardan foydalanish bosqichlari 3 ta qadamdan ortiq bo‘lgan xizmatlarning ma’muriy jarayonlarini “Digital by default” tamoyili asosida maqbullashtirish;

ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish;

mehnat faoliyati va aholi ijtimoiy ta’minotini tartibga solish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

aholiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish orqali qurilish sohasida shaffoflik va sifatni oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish unumdorligini oshirish, mahsulotlar tannarxini kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish tizimini tashkil etish;

elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’molchilarga yetkazish, uglevodorod xom ashyosini qazib chiqarish, qayta ishlash hamda iste’molchilarga yetkazish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish orqali to‘liq nazorat etish tizimini yo‘lga qo‘yish;

ochiq ma’lumotlarga qulay kirishni ta’minlash uchun davlat idoralariga API-larni ishlab chiqish va taqdim etish.

2.3. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg‘unlashtirish;

korxona ta’minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta’minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish;

zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;

innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;

savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;

boshqaruv ma’lumotlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish;

2025-yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ulushini 90 foizga yetkazish;

sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, “Buyumlar interneti”, “sun’iy

intellekt” kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027-yilga kelib, apparat qismini esa 2030-yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliylashtirish;

kommunal xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish, intellektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun “aqlli uy” tajribasini joriy etish;

2022-yilda respublikaning barcha yirik shaharlarida jamoat transportlarida yo‘l haqi to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va naqd pulsiz to‘lovlar ulushini 90 foizga yetkazish;

har qanday yo‘lovchi transportida chipta sotib olish uchun yagona platformani yaratish;

korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni Internet jahon axborot tarmog‘i orqali sotish bozorlarini kengaytirish;

transport tizimini kompleks rivojlantirish uchun dasturiy modellashtirish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini amalga oshirish;

sug‘urta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sug‘urtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

logistika tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida raqamli logistika tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;

iqtisodiyotning real sektorlarida robotlashtirilgan sanoatni rivojlantirish va amalga oshirish;

yirik sanoat korxonalari uchun robototexnika va muhandislik ixtisosliklarini tashkil etish;

ishlab chiqarish korxonalarida addiktiv (qavatma-qavat qurish va sintez qilish texnologiyasi, 3D o‘lchamda bosib chiqarish) texnologiyalarini keng joriy etish.

Elektron tijorat va elektron to‘lovlar tizimini rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan mijozlarni masofadan aniqlash tizimlarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish;

xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash;

raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet jahon axborot tarmog‘i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalardan ulanish imkoniyatlari va ko‘lamlarini oshirish;

elektron tijorat va elektron to‘lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to‘lovlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasini takomillashtirish;

elektron tijoratning rivojida muhim rol o‘ynovchi pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash va texnik yangilashni ta’minlash, logistika markazlarini (fulfilment) yaratish bo‘yicha yirik loyihalarni amalga oshirish, axborot texnologiyalarini va pochta aloqasi obyektlarida avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etish, shuningdek, pochta va logistika xizmatlari sifatini oshirish;

jismoniy shaxslarga Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni to‘lashni tashkil etish jarayonini osonlashtirishga imkon beradigan to‘lovlar agregatorlarini rivojlantirish;

transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini qulay va o‘z vaqtida eksport qilishni ta’minlash;

bitta savdo maydonchasida keng ko‘lamli bank va bankdan tashqari moliyaviy xizmatlarni (qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar, sug‘urta va boshqalar) taqdim etishga yo‘naltirilgan moliyaviy supermarketlarning biznes modelini yaratish;

tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish ko‘lamini va sifatini oshirish;

elektron tijorat sohasida malakali kadrlar tayyorlash o‘quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shu jumladan chet eldagi

yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shuningdek, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb yetish;

elektron tijorat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarini QR to‘lovlari texnologiyasi va NFC texnologiyalarini joriy qilish, jumladan mobil qurilmalar orqali to‘lovlarni qabul qilish orqali zamonaviy va qulay bo‘lgan masofaviy usullarda qabul qilish imkoniyatini yaratish;

davlat sektori, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xususiy sektor o‘rtasidagi yaqin hamkorlikda elektron tijorat va raqamli to‘lov platformalarini rivojlantirish va kengroq foydalanishga ko‘maklashish.

2.4. Raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Raqamli texnologiyalar yo‘nalishida startaplarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini tashkil etish hamda yetakchi ekspert va biznes mentorlarni jalb qilgan holda startap loyihalarga uslubiy yordam ko‘rsatib borish;

Raqamli texnologiyalar milliy bozori uchun qulay muhitni yaratish va istiqbolli “raqamli” startaplarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

texnoparklar va kovorking markazlari faoliyatini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish orqali zamonaviy raqobatbardosh va eksportga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlarni, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish;

raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning biznes amaliyotiga ta’siri va yangi raqamli xizmatlar yoki mahsulotlar paydo bo‘lishi ta’sirini hisobga olgan holda qonunchilik bazasini takomillashtirish mexanizmlarini shakllantirish;

milliy startaplarni rivojlantirishni rag‘batlantirish va axborot texnologiyalari sohasida yangi ish boshlayotgan korxonalar va kichik korxonalarga, jumladan venchur moliyalashtirish orqali ko‘maklashish;

mahalliy dasturiy mahsulotlar bozori rivojlanishi uchun sharoit yaratish, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari va davlat organlarining samarali o‘zaro hamkorligini ta’minlash orqali yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ularni keyinchalik amalga oshirish;

tashqi bozorda mahalliy texnologik va dasturiy mahsulotlarga bo‘lgan talabni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;

intellektual mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish, ustav kapitalida intellektual mulkni ko‘rsatish imkoniyatini yaratish bilan bog‘liq tartibotlarni soddalashtirish;

venchur ekotizimlarning rivojlanishini soddalashtirish uchun “regulyativ qumdon”ni yaratish;

transport jarayonlarini rejalashtirishda aholining harakatchanligini aniqlash uchun (maxfiy ma’lumotdan tashqari) turli xizmatlardan (mobil aloqa operatorlari ma’lumotlari, ilovalar va boshqalar) ma’lumotlarni jamlash bo‘yicha yagona platformani joriy etish;

axborot texnologiyalari sohasidagi startap va tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish tizimining muqobil mexanizmlarini joriy yetish;

innovatsion g‘oyalar, startaplar va venchur loyihalarini moliyalashtirish tizimining barqaror zanjirini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

axborot texnologiyalari sohasida yangidan ish boshlagan va kichik korxonalarga startap-loyihalarni amalga oshirishda, innovatsiya faoliyati natijalarini investitsiyalarni jalb qilgan holda ko‘maklashish;

sportchilarni kompyuter sport turlari bo‘yicha, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida o‘qitish uchun kompyuter sport markazlari (professional klublar) tarmog‘ini yaratish;

kompyuter o‘yinlari sanoatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, xorijiy investitsiyalarni mahalliy IT-mahsulotlarini ishlab chiqish va rag‘batlantirishga jalb qilish, ushbu sohadagi malakali mutaxassislarni tanlab olish va tayyorlash;

axborot texnologiyalari sohasida autsorsing xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

loyiha boshqaruviga o‘qitishni joriy etish, shuningdek, startap-loyihalarini qo‘llab-quvvatlovchi inkubatsiya va akseleratsiya markazlari faoliyatini tashkil etish orqali axborot texnologiyalari sohasidagi oliy ta’lim sifatini oshirish;

IT-parkning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarini ochish orqali mahalliy dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilarining manfaatlarini ifodalash hamda ularga o‘z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda ilgari surishda ko‘maklashish;

har tomonlama tahliliy va amaliy tadqiqotlar asosida raqamlashtirish jarayonlarining ishlab chiqarish va iqtisodiyot tarmoqlariga ta’sirini baholash va kelgusida mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini kengaytirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

axborot texnologiyalari sohasida tijoratlashtirish salohiyati baland bo‘lgan yuqori texnologik mahsulotlar yaratilishiga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalari ishlab chiqilishini rivojlantirish;

IT-park asosida ilg‘or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun “aqlli yechimlar” ni ishlab chiqishni rag‘batlantirish;

biznes korxonalari, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan yuqori texnologiyali tadbirkorlik markazlari va klasterlarini yaratishga ko‘maklashish;

texnoparklar, akseleratorlar va inkubatorlarni xakatonlar, tanlovlar va konferensiyalar orqali tizimli ravishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va grant subsidiyalari berish.

2.5. Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo‘nalishlari

Aholining barcha qatlamlarida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

yoshlar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

keksa va o‘rta yoshdagi aholiga Internet jahon axborot tarmog‘ida ishlash, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan va boshqa texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan kompyuter savodxonligi kurslarini tashkil etish;

axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o‘qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish;

raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta’lim maktabi o‘quvchilariga dasturlashni o‘rgatish uchun sharoit yaratish;

aholi o‘rtasida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish sohasida yirik IT-korxonalarni jalb qilgan holda davlat xususiy sheriklik mexanizmlarini tashkil qilish;

viloyat va shaharlarda raqamli ko‘nikmalar darajasidagi bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan o‘quv markazlarini tashkil etib vertikal boshqaruv o‘quv modeli tizimini tuman va shaharlar darajalarida (IT-park filiali-o‘quv markazi-maktab) joriy etish;

raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan aholi ulushini oshirish maqsadida yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida bepul onlayn kurslarni tashkil etish;

fuqarolarning raqamli iqtisodiyot sohasida bilim darajasini mustaqil baholash, shu jumladan boshlang‘ich bilim darajasini bepul baholash onlayn resurslarni tashkil qilish;

aholi o‘rtasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun “Bir million dasturchi” loyihasini amalga oshirish.

Davlat boshqaruvida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

davlat xizmatchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ko‘nikmalari va malakalarini oshirish mexanizmini rivojlantirish va doimiy takomillashtirib borish;

iqtisodiyotning real sektorida raqamlashtirishning istiqbolli sohalarida yangi yutuqlar muhokamasi bo‘yicha tadbirlarni (forumlar, seminarlar, konferensiyalar va boshqalar) o‘tkazish;

iqtidorli IT-mutaxassislarini o‘qitish, qo‘llab-quvvatlash va ularni targ‘ib qilish hamda mamlakatdan iqtidorli qatlamning chiqib ketishi oldini olish uchun ularning rivojlanishiga imkoniyat yaratish;

raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish;

ta’lim tizimiga har bir ta’lim darajasi uchun raqamli iqtisodiyotning asosiy vakolatlariga qo‘yiladigan talablarning shakllanishi va joriy etilishi, (vakolatlar modelini hisobga olgan holda) ularning uzluksizligini ta’minlash;

davlat organlari xodimlarini malakasini oshirish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan va xodimlarning malakasini baholashning yangi mexanizmlaridan foydalangan holda masofadan o‘qitish bo‘yicha yagona elektron platformani yaratish;

davlat va mahalliy hokimiyat organlari raqamli rivojlanish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘linmalarining mas’ul xodimlari bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish, shu jumladan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadlariga erishishga asoslangan moddiy rag‘batlantirish tizimini (KPI) joriy etish;

raqamli iqtisodiyot, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy etish va rivojlantirish uchun mas’ul bo‘lgan xodimlarni minimal ma’lumot darajasi va kasblar malakasi nuqtai nazaridan xodimlarning asosiy lavozimlari va ishchilarning kasblari klassifikatoriga rioya qilmasdan jalb qilish.

Ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

xotin-qizlarning kompyuter savodxonligini oshirish;

ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berish;

yagona masofaviy ta’lim platformasini kelajakda ta’limning barcha yo‘nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;

o‘quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta’lim maktablarining asosiy o‘quv dasturlariga doimiy o‘zgartirishlar kiritish;

texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o‘qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta’lim tizimiga joriy etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq yo‘nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o‘rtacha darajada kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;

axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o‘quv jarayonlarga qatnashishini rag‘batlantirish orqali umumta’lim maktablarda informatika fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalarida tegishli sohalarda “Buyumlar interneti”, robototexnika, sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash va o‘rganish bo‘yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarni ushbu sohaga jalb qilishni tashkil qilish;

qog‘oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish bo‘yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash orqali ta’limda o‘quv materiallarini raqamlashtirish;

raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;

g‘oyalar va yangi texnologiyalar yaratishni targ‘ib qiluvchi respublika tanlovlari va tadbirlarini (xakatonlar, konkurslar, olimpiadalar va boshqalar) o‘tkazish;

yangi qidiruv tizimlarini yaratish yo‘nalishini ishlab chiqish va aniqlash, shu jumladan audio va video materiallarni izlash va aniqlash uchun yechimlar, axborotni qidirish va olishda semantikadan

foydalanish, mashinaviy tarjima tizimidagi yangi texnologiyalar, shuningdek, mashinaviy o‘qitishning yangi algoritmlari va texnologiyalarini rivojlantirish;

katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish va bilimlarni to‘plash bo‘yicha, shu jumladan katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va intellektual tahlil qilishning yangi usullari va algoritmlarini, katta hajmdagi ma’lumotlarni tarqatish uchun yangi usullar va dasturlar, shu bilan birga murakkab muhandislik yechimlarini bashoratli modellashtirish uchun yangi usullar va dasturiy ta’minotlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

xatolarga chidamliligini oshirish va tizim elementlari o‘rtasidagi almashinuv vaqtini qisqartirish uchun yangi yuqori darajali hisoblash va ma’lumotlarni saqlash tizimlarini, shu jumladan parallel hisoblashning yangi algoritmlarini, yangi superkompyuter texnologiyalari va dasturlarini, yangi aloqa texnologiyalari va o‘zaro ta’sir protokollarini yaratish, shuningdek, tizim elementlari o‘rtasidagi almashinuv vaqtini qisqartirish, yuqori samarali va ishonchli ma’lumotlarni saqlash tizimlari uchun yangi dasturlar yaratish sohasida tadqiqotlar o‘tkazish;

robototexnika komplekslari va odamlar o‘zaro ta’sirining algoritmlarini ishlab chiqish, ma’lumotlar uzatish tarmoqlari infratuzilmasini, o‘rnatilgan sensorlar va sensor tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek, “bulutli” xizmatlarini taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta’minot yaratish bo‘yicha ilmiy ishlarni olib borish;

xalqaro yirik korxonalarning markazlari bilan hamkorlikda raqamlashtirish yo‘nalishidagi milliy kadrlar malakasini oshirish mexanizmini tatbiq etish;

maktabgacha, o‘rta va oliy ta’lim tizimi uchun elektron ta’lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalanishni ta’minlash;

inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan, ixtisoslashgan ta’limni rivojlantirish hamda IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish;

ayollarga va nogironligi bo‘lgan shaxslarga raqamli ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun davlat tomonidan yordam ko‘rsatish;

maktab va maktabgacha ta’lim tizimiga raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalar bo‘yicha innovatsion o‘quv dasturlarini joriy etish;

elektron xizmatlarga aholi ishonchini shakllantirish va aholining tez rivojlanayotgan raqamli imkoniyatlaridan foydalanish yuzasidan zarur ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha samarali choralarni ko‘rish;

ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda, texnologiya hayotiy muhim masalalarni hal qilish, o‘qitish, ish qidirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan mavzularda muntazam ravishda ta’lim kampaniyalarini o‘tkazish;

odamlarni hukumat va biznes tomonidan taqdim etiladigan raqamli xizmatlardan foydalanishga chorlash;

xotin-qizlarni raqamli texnologiyalar sohasiga keng jalb qilishga qaratilgan turli loyihalar va tadbirlarni tashkil etish orqali qo‘llab-quvvatlash;

hududlarda yoshlarni raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarga o‘qitishga yo‘naltirilgan IT-shaharchalarni tashkil etish;

aholi o‘rtasida sun’iy intellekt yo‘nalishida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasini amalga oshirish;

yoshlar orasida sun’iy intellekt texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

xalqaro yirik kompaniyalar bilan hamkorlikda sun’iy intellekt yo‘nalishidagi kadrlar malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

kadrlar almashinuvi va o‘zaro tajriba almashish jarayonlarini tashkil qilish, ilmiy tashkilotlar va xususiy sektor hamkorligida qo‘shma tadqiqotlar va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish;

yuqori sinf o‘quvchilarini raqamli texnologiyalar sohasida talab yuqori bo‘lgan kasbga tayyorlashning “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” tizimini joriy etish.

2.6. Sun’iy intellekt texnologiyalari va kosmik tadqiqotlar sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun’iy intellekt asosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish;

sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohada standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;

sun’iy intellekt texnologiyalarini amalga oshirish bo‘yicha parallel hisoblash, mashinaviy o‘qitish va boshqa loyihalar uchun zarur bo‘lgan grafik ishlov berish bloklarini (GPU) o‘z ichiga olgan yuqori samarali hisoblash klasterini (superkompyuter) ishga tushirish;

davlat boshqaruvi organlari, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish;

yoshlarning sun’iy intellekt texnologiyalariga qiziqishini oshirish va startap ekotizimini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida Umummilliy sun’iy intellekt xakatonini o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish;

mamlakatda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim tashkilotlarida 15 tadan ortiq sun’iy intellekt laboratoriyalarini ishga tushirish;

sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha etika qoidalarini ishlab chiqish;

sohadagi davlat standartlari va normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish;

sun’iy intellekt texnologiyalari sohasidagi institutsional asoslarni shakllantirish;

iqtisodiyot tarmoqlaridagi o‘zgarishlar tendensiyasi va muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish hamda samaradorlikni oshirish maqsadida davlat kosmik monitoringini o‘tkazish;

davlat kosmik monitoringi doirasida aniqlanadigan barcha ma’lumotlarni markazlashgan yagona milliy platformada saqlash va yuritishni ta’minlash.

3-bob. Strategiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish rejalashtirilgan (maqsadli ko‘rsatkichlar ilovada):

yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot va mobil aloqa tarmoqlaridan sifatli, xavfsiz, arzon va oqilona foydalanish;

optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini 99 foizgacha yetkazish;

aloqa va telekommunikatsiyalarning ochiq va raqobatbardosh bozori;

barcha ijtimoiy obyektlarni Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta’minlash;

respublika bo‘ylab optik tolali aloqa tarmog‘ining uzunligini kengaytirish;

aholi punktlarini yuqori tezlikdagi aloqa texnologiyalari (4G va b.) bilan qamrab olish darajasini oshirish;

shaharlar va qishloqlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish;

elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish;

elektron davlat xizmatlari ulushini oshirish;

elektron davlat xizmatlariga ishonchni mustahkamlash, aholining davlat organlari bilan xavfsiz va oson o‘zaro hamkorlik qilishini ta’minlash;

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali elektron davlat xizmatlariga nisbatan mobil qurilmalar yordamida foydalanish imkoniyatiga ega elektron davlat xizmatlari ulushini 90 foizga yetkazish;

davlat, biznes va aholining ehtiyojlariga qarab, hisoblash quvvatini samarali taqsimlash va undan foydalanish;

respublika bo‘ylab kommunal sohada elektron hisoblagichlar ulushini oshirish;

an’anaviy qog‘oz yoki elektron hujjatga nisbatan elektron yozuvning ustunligi;

dasturiy mahsulotlarning eksport hajmini kengaytirish;

IT-parkda rezidentlari sonini oshirish;

investitsiya muhitini yaxshilash, axborot texnologiyalari sohasida investitsiyalar samaradorligini oshirish;

aholining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat vositalaridan foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirish;

aholining barcha qatlamlari uchun axborot texnologiyalari sohasida taʼlim olish boʻyicha keng imkoniyatlarining mavjudligi;

“Besh million sunʼiy intellekt yetakchilari” milliy dasturi doirasida 5 million yoshlarni sunʼiy intellekt boʻyicha onlayn oʻqitishga erishish;

axborot texnologiyalari sohasidagi professional kadrlar zaxirasining, shu jumladan boshqaruv kadrlari zaxirasining mavjudligi;

IT-yoʻnalishi boʻyicha oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilari sonini oshirish;

respublikaning barcha tumanlarida (shaharlarida) raqamli texnologiyalar oʻquv markazlarini tashkil etish.

4-bob. Monitoring va hisobot berish mexanizmlari

Strategiyada belgilangan amaliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va maqsadlarga erishilishini monitoring qilish maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirining birinchi oʻrinbosari raisligida muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh tuziladi.

Ishchi guruh tomonidan amaliy tadbirlar rejasida belgilangan har bir vazifaning bajarilishi holati va natijadorlik mezonlariga koʻra har bir islohot koʻzlangan maqsadlarga erishishga xizmat qilayotganligi oʻrganiladi va baholanadi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi har chorak yakuni bilan keyingi oyning 25-sanasiga qadar ushbu Strategiyaning maqsadli koʻrsatkichlariga erishish ustidan tizimli nazoratni tashkil etadi va Reyestrga muvofiq ochiq maʼlumotlar toʻplamlari joylashtirilib borilishi holatiga doir tahliliy maʼlumotlarni Muvofiqlashtiruvchi komissiyaga hamda Strategik rejalashtirish va rivojlanishning raqamli platformasiga kiritadi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi tahliliy maʼlumotlarni Muvofiqlashtiruvchi komissiya yigʻilishlarida masʼul vazirlik va idoralar rahbarlarining raqamlashtirish sohasidagi faoliyatini tanqidiy koʻrib chiqish uchun kiritib boradi.

5-bob. Baholash mexanizmlari

Strategiyaning amalga oshirilish samaradorligi va belgilangan maqsadli koʻrsatkichlarga erishish darajasi, maqsadli indikatorlar, xalqaro reyting va indekslar hamda davlat organlari va tashkilotlarining raqamli transformatsiya holatini baholash natijalari asosida muntazam monitoring qilinadi va baholanadi.

Quyidagilar Strategiyaning amalga oshirilish samaradorligini baholashning asosiy mezonlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari hisoblanadi:

“Raqamli Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining maqsadli koʻrsatkichlari strategiya ijrosining asosiy strategik indikatori boʻlib, uning umumiy samaradorligini baholashga xizmat qiladi;

mazkur maqsadli koʻrsatkichlar Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari va xodimlari faoliyati samaradorligini baholovchi eng muhim koʻrsatkichlarda (KPI) aks ettiriladi va doimiy nazorat qilib boriladi;

axborot texnologiyalari sohasida xalqaro tashkilotlar tomonidan baholanadigan reyting va indekslar strategiya ijrosi samaradorligini tashqi baholash mezoni sifatida qoʻllaniladi;

davlat organlari va tashkilotlarining raqamli transformatsiya holati har yarim yillikda baholab boriladi va tegishli choralar koʻriladi.

“Raqamli Oʻzbekiston — 2030” strategiyasiga
ILOVA

“Raqamli Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining maqsadi va samaradorlik ko‘rsatkichlari:	**57-maqsad.** Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mar aylantirish. Sun’iy intellekt yetakchilari sonini 5 million nafarga yetkazish. Xalqaro internetga ulanish tezligini 5 000 Gbit/sga yetkazish. Optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish foizgacha yetkazish. Startap ekotizimining yagona platformasida (startupbase.uz) startaplarning yillik inkubatsiya va akseleratsiya dasturlaridan o‘t bo‘lmagan darajada ta’minlash. Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistrallarni 100 foiz mobil interne **77-maqsad.** Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko‘lamini k “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o‘rtasida tartibotlarga barham berish. BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida top-30 tali Elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 90 foi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali mobil ilovasida joriy portaldagi mavjud xizmatlarga nisbatan ulushini 90 foizga yetkaz Kompozit va proaktiv tarzda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari son
Strategik rejalashtirish hujjatining umumlashgan hisoboti uchun mas’ul tashkilot:	Raqamli texnologiyalar vazirligi
Strategik rejalashtirish hujjatining maqsadi:	2030-yilga qadar raqamli texnologiyalar sohasini yana telekommunikatsiya infratuzilmalarini kengaytirish, aholiga ko oshirish, idoralararo integratsiyani kuchaytirish, startap loyihalar bosqichlaridan samarali o‘tkazishni tizimli yo‘lga qo‘yish yo‘nalishida bilim va malakalarini oshirish.

Strategik rejalashtirish hujjatining ta’sir (impact) ko‘rsatkichi	**O‘lchov birligi**	**Hisoblash formulasi**	**Amaldagi ko‘rsatkich (eng oxirgi dolzarb ko‘rsatkich)**	**Oraliq ko‘rsatkichlar (yillar kesimida)**	**Strategil rejalashtir hujjatin amalga oshi yakunida maqsadl ko‘rsatki**
“Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi”ning (EGDI) samaradorlik ko‘rsatkichini yaxshilash	ball (0-1 oralig‘ida)	Ko‘rsatkich qiymati	0,79	2026 — 0,80 2028 — 0,83	0,90

Strategiyaning vazifasi	“Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi”da (EGDI) mamlakati

Strategik rejalashtirish hujjatining natija (outcome) ko‘rsatkichi	**O‘lchov birligi**	**Hisoblash formulasi**	**Amaldagi ko‘rsatkich (eng oxirgi dolzarb ko‘rsatkich)**	**Oraliq ko‘rsatkichlar (yillar kesimida)**	**Strategil rejalashtir hujjatin amalga oshirish yakunida**

					maqsadl ko‘rsatki
Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarni to‘liq mobil Internet bilan ta’minlash	foiz	Maqsadli ko‘rsatkichning umumiy ko‘rsatkichga nisbati (foizda)	95	2026 — 96 2027 — 97 2028 — 98 2029 — 99	100
Aholi punktlarini optik tolali aloqa liniyalari bilan qamrovini oshirish	foiz	Maqsadli ko‘rsatkichning umumiy ko‘rsatkichga nisbati (foizda)	98	2026 — 98,2 2027 — 98,5 2028 — 98,7 2029 — 98,9	99,0
Elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 90 foizdan oshirish	foiz	Maqsadli ko‘rsatkichning umumiy ko‘rsatkichga nisbati (foizda)	63	2026 — 70 2027 — 75 2028 — 80 2029 — 85	90
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan tranzaksiyaviy xizmatlar ulushini oshirish	foiz	Maqsadli ko‘rsatkichning umumiy ko‘rsatkichga nisbati (foizda)	55	2026 — 63 2027 — 65 2028 — 67 2029 — 70	75
Korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlar ulushi	foiz	Maqsadli ko‘rsatkichning umumiy ko‘rsatkichga nisbati (foizda)	60	2026 — 70 2027 — 75 2028 — 80 2029 — 85	100
Chora-tadbirlar va bevosita faoliyat natijasi ko‘rsatkichlari (output)					
Chora-tadbirlar nomi	**Mazkur chora-tadbirni amalga oshirishning**	**O‘lchov birligi**	**Amaldagi ko‘rsatkich**	**Yakuniy ko‘rsatkich**	**Moliyalashtirish hajmi va manbasi**	**Chora-tadbirla ijrosiga**

	bevosita faoliyat natijasi ko‘rsatkichi (output)		**(eng oxirgi dolzarb ko‘rsatkich)**			**mas’ul tashkilot/id**
Respublika bo‘ylab optik tolali aloqa liniyalari uzunligini oshirish	Respublika bo‘ylab optik tolali aloqa liniyalari uzunligini 430 ming kmga yetkazish	ming km	340	430	Telekommunikatsiya operator va provayderlari mablag‘lari	Raqamli texnologiya vazirligi
Xalqaro internetga ulanish tezligini oshirish	Xalqaro internetga ulanish tezligini 5000 Gbit/s.ga yetkazish (Gbit/s)	Gbit/s	4 400	5 000	Telekommunikatsiya operator va provayderlari mablag‘lari	Raqamli texnologiya vazirligi
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali mobil ilovasida joriy qilingan xizmatlarning yagona portaldagi mavjud xizmatlarga nisbatan ulushini oshirish	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali mobil ilovasida joriy qilingan xizmatlarning yagona portaldagi mavjud xizmatlarga nisbatan ulushini 90 foizga yetkazish	foiz	65	90	Ijrochi mablag‘lari	Raqamli texnologiya vazirligi
Yagona billing orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar sonini oshirish	Yagona billing orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar sonini 45 mlnga yetkazish	mln ta	40	45	Alohida hisob-kitob asosida	Raqamli texnologiya vazirligi
Strategik rejalashtirish hujjatining ta’sir (impact) ko‘rsatkichi		**O‘lchov birligi**	**Hisoblash formulasi**	**Amaldagi ko‘rsatkich (eng oxirgi dolzarb ko‘rsatkich)**	**Oraliq ko‘rsatkichlar (yillar kesimida)**	**Strategil rejalashtir hujjatin amalga oshi yakunida maqsadl ko‘rsatki**
Sun’iy intellekt yetakchilari sonini 5 million nafarga yetkazish		mln	Ko‘rsatkich qiymati	0,08	2026 — 0,5 2027 — 1 2028 — 2 2029 — 3	5

Strategiyaning vazifasi		Sun’iy intellekt yetakchilari sonini oshirish			
Strategik rejalashtirish hujjatining natija (outcome) ko‘rsatkichi	**O‘lchov birligi**	**Hisoblash formulasi**	**Amaldagi ko‘rsatkich (eng oxirgi dolzarb ko‘rsatkich)**	**Oraliq ko‘rsatkichlar (yillar kesimida)**	**Strategil rejalashtir hujjatin amalga oshirish yakunida maqsadl ko‘rsatki**
Sun’iy intellekt yetakchilari sonini oshirish	mln	Ko‘rsatkich qiymati	0,08	2026 — 0,5 2027 — 1 2028 — 2 2029 — 3	5
Chora-tadbirlar va bevosita faoliyat natijasi ko‘rsatkichlari (output)					
Chora-tadbirlar nomi	**Mazkur chora-tadbirni amalga oshirishning bevosita faoliyat natijasi ko‘rsatkichi (output)**	**O‘lchov birligi**	**Amaldagi ko‘rsatkich (eng oxirgi dolzarb ko‘rsatkich)**	**Yakuniy ko‘rsatkich**	**Moliyalashtirish hajmi va manbasi**	**Chora-tadbirla ijrosiga mas’ul tashkilot/id**
Sun’iy intellekt yetakchilari sonini oshirish	Sun’iy intellekt yetakchilari sonini 5 million nafarga yetkazish	mln	0,08	5	Budjetdan tashqari mablag‘lar	Raqamli texnologiya vazirligi
Strategik rejalashtirish hujjatining ta’sir (impact) ko‘rsatkichi		**O‘lchov birligi**	**Hisoblash formulasi**	**Amaldagi ko‘rsatkich (eng oxirgi dolzarb ko‘rsatkich)**	**Oraliq ko‘rsatkichlar (yillar kesimida)**	**Strategil rejalashtir hujjatin amalga oshi yakunida maqsadl ko‘rsatki**
Startap ekotizimining yagona platformasida (startupbase.uz) ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy startaplarning yillik inkubatsiya		foiz	Maqsadli ko‘rsatkichning umumiy	0	2026 — 10 2027 — 10 2028 — 10 2029 — 10	10

va akseleratsiya dasturlaridan o‘tkazish ulushini 10 foizdan kam bo‘lmagan darajada ta’minlash		ko‘rsatkichga nisbati (foizda)			
Strategiyaning vazifasi		Startap ekotizimining yagona platformasida (startupbase.uz) ro‘y startaplarning yillik inkubatsiya va akseleratsiya dasturlaridan o‘t			
Strategik rejalashtirish hujjatining natija (outcome) ko‘rsatkichi	**O‘lchov birligi**	**Hisoblash formulasi**	**Amaldagi ko‘rsatkich (eng oxirgi dolzarb ko‘rsatkich)**	**Oraliq ko‘rsatkichlar (yillar kesimida)**	**Strategil rejalashtir hujjatin amalga oshirish yakunida maqsadl ko‘rsatki**
Startap ekotizimining yagona platformasida (startupbase.uz) ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy startaplarning yillik inkubatsiya va akseleratsiya dasturlaridan o‘tkazish.	foiz	Maqsadli ko‘rsatkichning umumiy ko‘rsatkichga nisbati (foizda)	0	2026 — 10 2027 — 10 2028 — 10 2029 — 10	10
Chora-tadbirlar va bevosita faoliyat natijasi ko‘rsatkichlari (output)					
Chora-tadbirlar nomi	**Mazkur chora-tadbirni amalga oshirishning bevosita faoliyat natijasi ko‘rsatkichi (output)**	**O‘lchov birligi**	**Amaldagi ko‘rsatkich (eng oxirgi dolzarb ko‘rsatkich)**	**Yakuniy ko‘rsatkich**	**Moliyalashtirish hajmi va manbasi**	**Chora-tadbirla ijrosiga mas’ul tashkilot/id**
Startap ekotizimining yagona platformasida (startupbase.uz) ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy startaplarning yillik inkubatsiya va akseleratsiya dasturlaridan o‘tkazish.	Startap ekotizimining yagona platformasida (startupbase.uz) ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy startaplarning yillik inkubatsiya va akseleratsiya dasturlaridan o‘tkazish ulushini 10 foizdan kam bo‘lmagan darajada ta’minlash	foiz	0	10	Budjetdan tashqari mablag‘lar	Raqamli texnologiya vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga
2-ILOVA

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida 2020 — 2022-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini raqamli transformatsiya qilish

DASTURI

Asosiy ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Ko‘rsatkichlar miqdori		
		2020-yil	2021-yil	2022-yil
Hududlarining yuqori tezlikdagi Internet tarmog‘i bilan qamrov darajasi	foiz	67,0	85,0	96,0
Aholi punktlarining keng polosali mobil aloqa tarmog‘i bilan qamrov darajasi	foiz	78,0	82,0	100
Hududda bozor xizmatlari tuzilmasida IT-xizmatlar ulushi	foiz	2,8	3,9	5,0
Hududdagi dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi — IT-kompaniyalar soni	dona	1	5	11
Elektron tijorat subyektlari (tashkilotlar) soni	dona	7	13	24
Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari kurslari bitiruvchilari soni	nafar	1 500	3 500	5 500
Elektr va tabiiy gaz iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulangan “aqlli” hisoblagichlar ulushi	foiz	100	-	-
Suv omborlari, respublika va tumanlararo irrigatsiya tizimlari, tuman irrigatsiya tizimlarida avtomatlashtirilgan qurilmalarni o‘rnatish	dona	-	228	341
Qishloq xo‘jaligi texnikalarini boshqarishda sun’iy yo‘ldosh navigatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ulushini oshirish	foiz	10	30	50
“Bir million dasturchi” dasturida ishtirok etgan hududiy ta’lim muassasalari o‘quvchilari soni	ming	2,2	5,5	10,2
“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirishga yo‘naltirilishi rejalashtirilgan mahalliy budjet va mahalliy davlat hokimiyat organining budjetdan tashqari mablag‘lari hajmi	mlrd so‘m	3,2	5,4	7,5

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish bosqichlari	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Ijrochilar
I. Raqamli infratuzilmani kengaytirish					
1.	Sog‘liqni saqlash muassasalarini yuqori tezlikdagi ma’lumotlarni uzatish	1. 124 ta obyektlarga qadar optik aloqa liniyalarini tortish.	2020-yil dekabr	Telekommunikatsiya operatori mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*,

	tarmog‘iga ulash va undan foydalanishni tashkil etish.	2. 212 ta sog‘liqni saqlash muassasalarini Internet tarmog‘iga ulash. 3. Barcha sog‘liqni saqlash muassasalarida Internet tarmog‘idan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	2020-yil dekabr 2021-yil 1-yanvardan boshlab, doimiy	Mahalliy budjet	Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*
2.	Maktabgacha ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi ma’lumotlarni uzatish tarmog‘iga ulash va undan foydalanishni tashkil etish.	1. 276 ta obyektlarga qadar optik aloqa liniyalarini tortish. 2. 393 ta maktabgacha ta’lim muassasalarini Internet tarmog‘iga ulash. 3. Barcha maktabgacha ta’lim muassasalarida Internet tarmog‘idan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	2020-yil dekabr 2020-yil dekabr 2021-yil 1-yanvardan boshlab, doimiy	Telekommunikatsiya operatori mablag‘lari Mahalliy budjet	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Maktabgacha ta’lim vazirligi *(A. Shin)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*
3.	Umumta’lim maktablarini yuqori tezlikdagi ma’lumotlarni uzatish tarmog‘iga ulash va undan foydalanishni tashkil etish.	1. 487 ta obyektlarga qadar optik aloqa liniyalarini tortish. 2. 574 ta umumta’lim maktablarini Internet tarmog‘iga ulash. 3. Barcha umumta’lim maktablarida Internet tarmog‘idan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	2020 — 2022-yillar 2021-yil dekabr 2022-yil 1-yanvardan boshlab, doimiy	Telekommunikatsiya operatori mablag‘lari Mahalliy budjet	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*
4.	FTTx texnologiyasini qo‘llagan holda keng polosali optik tarmoqlarni kengaytirish.	1. Telekommunikatsiya uskunalarini o‘rnatish uchun joylarni rejalashtirish. 2. 159,3 mingta keng polosali kirish portlarini o‘rnatish: 2020-y. — 118,7 ming; 2021-y. — 20,3 ming;	2020-yil oktabr 2020 — 2022-yillar	Telekommunikatsiya operator va provayderlari mablag‘lari	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*, “O‘zbektelekom” AK *(N. Xasanov)*

		2022-y. — 20,3 ming. 3. Loyihani ishga tushirish.	 2022-yil dekabr		
5.	Optik-tolali aloqa liniyalarini qurish.	1. Uzunligi 2 500,7 km bo‘lgan optik-tolali aloqa liniyalarini qurish: 2020-y. — 1054 km; 2021-y. — 732,7 km; 2022-y. — 714 km. 2. Uskunalarni o‘rnatish va ishga tushirish.	2020 — 2022-yillar 2022-yil dekabr	Telekommunikatsiya operator va provayderlari mablag‘lari	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*, “O‘zbektelekom” AK *(N. Xasanov)*
6.	Wi-Fi texnologiyasi yordamida jamoat joylarida simsiz keng polosali tarmoqlarni kengaytirish.	1. Simsiz Wi-Fi kirish nuqtalarini o‘rnatish joylarini rejalashtirish. 2. Internetga kirish uchun 20 ta qo‘shimcha joylarga uskunalarni o‘rnatish va ishga tushirish.	2020-yil oktabr 2021-yil dekabr	Telekommunikatsiya operator va provayderlari mablag‘lari	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*, Turizmni rivojlantirish qo‘mitasi *(A. Akkulov)*, “O‘zbektelekom” AK *(N. Xasanov)*
7.	Mobil aloqa tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish.	1. Mobil aloqa baza stansiyalarini o‘rnatish joylarini rejalashtirish. 2. Uskunalarni o‘rnatish va sozlash ishlarini olib borish. 3. 103 ta baza stansiyalarini ishga tushirish.	2020-yil oktabr 2021-yil may 2021-yil iyun	Mobil aloqa operatorlari mablag‘lari	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*
II. Axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish					
8.	Fazoviy ma’lumotlarni shakllantirish va tahlil qilishni ta’minlovchi “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geografik axborot-tahliliy geoportalini yaratish.	1. Loyihaoldi o‘rganishni va ma’lumotlar tahlilini amalga oshirish. 2. Loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish. 3. Loyihani joriy etish va bosqichma-bosqich elektron hukumat tizimlari	2020-yil noyabr 2021-yil may 2021-yil sentabr	Mahalliy davlat hokimiyat organining budjetdan tashqari mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*

		bilan integratsiya qilish.			
9.	Bolalarning davomati va salomatligini onlayn monitoring qilish, shuningdek, onlayn to‘lov va to‘lov hisobi uchun billing tizimini joriy etish bo‘yicha “Bolalar bog‘chasi” namunaviy axborot tizimini hududda joriy etish.	1. Tizimni respublika hududidagi maktabgacha ta’lim muassasalarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. 2. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish hamda maktabgacha ta’lim muassasalarini kerakli jihozlar bilan ta’minlash. 3. “Bolalar bog‘chasi” tizimini “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	2021-yil aprel jadvalga asosan 2021-yil oktabr	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Maktabgacha ta’lim vazirligi *(A. Shin)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*
10.	O‘quvchilarning o‘zlashtirishini hisobga olish, o‘qituvchilar faoliyatiga oid statistika va hisobotlarni shakllantirishni nazarda tutuvchi “Elektron kundalik” yagona tizimini hududda joriy etish.	1. Tizimni respublika hududidagi ta’lim muassasalarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. 2. Qog‘oz jurnal va kundaliklarni to‘liq bekor qilish va elektron tarzda yuritish. 3. “Elektron kundalik” tizimini “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	2020-yil oktabr jadvalga asosan 2021-yil oktabr	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*
11.	Bemorlarning sog‘lig‘i va ularni barcha tibbiyot muassasalarida davolash uchun umumiy ma’lumotlarni shakllantirish va saqlashga mo‘ljallangan “Yagona elektron	1. Tizimni respublika hududidagi sog‘liqni saqlash muassasalarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. 2. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish hamda sog‘liqni saqlash muassasalarini	2022-yil mart jadvalga asosan	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmatov)*

	tibbiy karta” axborot tizimini hududda joriy etish.	kerakli jihozlar bilan ta’minlash. 3. “Yagona elektron tibbiy karta” axborot tizimini “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	2022-yil iyul		
12.	“Elektron poliklinika” namunaviy axborot tizimini hududda joriy etish.	1. Tizimni respublika hududidagi sog‘liqni saqlash muassasalarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. 2. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish hamda sog‘liqni saqlash muassasalarini kerakli jihozlar bilan ta’minlash. 3. “Elektron poliklinika” tizimini “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	2021-yil fevral jadvalga asosan 2021-yil oktabr	Xalqaro moliya institutlari, Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*
13.	“Elektron shifoxona” namunaviy axborot tizimini hududda joriy etish.	1. Tizimni respublika hududidagi sog‘liqni saqlash muassasalarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. 2. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish hamda sog‘liqni saqlash muassasalarini kerakli jihozlar bilan ta’minlash. 3. “Elektron shifoxona” tizimini “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	2022-yil may jadvalga asosan 2022-yil oktabr	Xalqaro moliya institutlari, Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*
14.	Medikamentoz vositalari bilan samarali va xavfsiz	1. Tizimni respublika hududidagi sog‘liqni saqlash	2022-yil fevral	Xalqaro moliya institutlari,	Sog‘liqni saqlash vazirligi

	davolanishni tashkil etish va shifokorlarning elektron reyestrini shakllantirishga mo‘ljallangan “Elektron retsept” axborot tizimini hududda joriy etish.	muassasalarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. 2. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish hamda sog‘liqni saqlash muassasalarini kerakli jihozlar bilan ta’minlash. 3. “Elektron retsept” tizimini “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	jadvalga asosan 2022-yil may	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	*(A. Shadmanov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*
16.	“Shaffof qurilish” kompleks axborot tizimini hududda joriy etish.	1. Tizimlarni respublika hududidagi qurilish obyektlarida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. 2. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish. 3. “Shaffof qurilish” kompleks axborot tizimini “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	2021-yil fevral jadvalga asosan 2021-yil oktabr	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Qurilish vazirligi *(B. Zakirov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*
17.	“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimini hududda joriy etish.	1. Loyihani sinov tariqasida ishlatishda aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish va tegishli axborot tizimlari bilan integratsiya qilish. 2. Loyihani bosqichma-bosqich to‘liq amaliyotga joriy etish ishlarini olib borish. 3. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimini “Raqamli Qoraqalpog‘iston	2020-yil oktabr-noyabr 2020-yil dekabr 2021-yil dekabr	Xalqaro moliya institutlarining grantlari	Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, manfaatdor vazirlik va idoralar

		Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.			
18.	Umumiy foydalanishdagi shahar yo‘lovchi tashish transportida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi imkoniyatlarini joriy etish: 1-bosqichda — respublika markazida; 2-bosqichda — respublikaning barcha hududlarida.	1. Avtobuslarni statsionar validatorlar bilan jihozlash. 2. Avtomatlashtirilgan transport kartalarini sotish qurilmalarini o‘rnatish. 3. Tizimni “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	2021-yil iyun 2022-yil aprel 2022-yil aprel	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Transport vazirligi *(I. Maxkamov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*
19.	“Mahalla” yagona axborot tizimini hududda joriy etish.	1. Tizimni sinov tariqasida Nukus shahrida va kelgusida respublika hududida joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. 2. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich tuman va shaharlarda joriy etish.	2021-yil fevral jadvalga asosan	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida va mahalliy budjetdan tashqari mablag‘lar	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi *(R. Mamatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Ichki ishlar vazirligi *(P. Bobojonov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
20.	“E-qaror” elektron tizimini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida joriy etish.	1. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari, shuningdek, mas’ul ijrochilar “E-qaror” elektron tizimiga ulanishini ta’minlash. Mazkur tashkilotlarning rahbarlari va mas’ul ijrochilarini elektron raqamli imzolar bilan ta’minlash. 2. “E-qaror” elektron tizimidan doimiy ravishda foydalanishni ta’minlash.	2021-yil sentabr doimiy ravishda	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*
21.	Avtoturargohlarning yagona reyestrini yaratish va onlayn-	Loyihani bosqichma-bosqich joriy etish va	2022-yil mart	Mahalliy davlat hokimiyat organining	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

	to‘lov imkoniyatini hududda joriy etish.	“Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.		budjetdan tashqari mablag‘lari	*(K. Sariyev)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*
22.	“Xalq nazorati” elektron portali va mobil ilovasini respublika aholisi uchun joriy etish.	Loyihani bosqichma-bosqich joriy etish va “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	2022-yil iyul	Mahalliy davlat hokimiyat organining budjetdan tashqari mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*
23.	Bozorlar va savdo shahobchalarida asosiy tovarlar bo‘yicha narxlarni monitoring qilish bo‘yicha “Bozor narxi” axborot tizimiga integratsiya qilish.	1. Tuman statistika bo‘limlari tomonidan asosiy tovarlar narxlarini axborot tizimiga muntazam kiritib borish. 2. “Bozor narxi” axborot tizimini “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	doimiy ravishda 2021-yil oktabr	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Davlat statistika qo‘mitasi *(B. Begalov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*
24.	“E-Mehmon” tizimini joriy etish.	1. Tizimni respublikadagi barcha mehmonxonalarda to‘liq joriy etish. 2. Tizimni “Raqamli Qoraqalpog‘iston Respublikasi” geoportaliga integratsiya qilish.	doimiy ravishda 2021-yil oktabr	Ijrochilar mablag‘lari	Turizm davlat qo‘mitasi *(A. Akkulov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*
25.	Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini hududda joriy etish.	1. Hisoblagichlardan elektr iste’moli to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlovchi va uzatuvchi 4 234 ta qurilmalarni (konsentrator) o‘rnatish. 2. Taqsimlash punkti va	2020-2021-yillar	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ *(U. Mustafoyev)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*

		transformatorlarga 4 128 ta elektr hisoblagichlarini o‘rnatish. 3. Hisoblagich o‘rnatilgan 282 459 ta iste’molchilarni billing tizimiga ulash.			
26.	“Hududgaz Qoraqalpog‘iston” gaz ta’minot filialida tabiiy gaz iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini hududda joriy etish.	Gaz hisoblagichlarni o‘rnatish va billing tizimiga integratsiya qilish: 2020-yilda — 144 955 ta; 2021-yilda — 96 637 ta.	2020-2021-yillar	“Hududgazta’minot” AJning o‘z mablag‘lari va bank kreditlari	“Hududgazta’minot” AJ *(B. Eshmuratov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*
27.	“Hududgaz Qoraqalpog‘iston” gaz ta’minot filialida suyultirilgan gazni hisobga olish va nazorat qilish tizimini hududda joriy qilish.	1. Suyultirilgan gaz balonlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish va shtrix-kodlarni o‘rnatish: 2020-yilda — 35 501 ta; 2021-yilda — 44 668 ta; 2022-yilda — 35 502 ta. 2. Suyultirilgan gaz iste’molchilarini plastik kartalar bilan ta’minlash: 2020-yilda — 35 501 ta; 2021-yilda — 44 668 ta; 2022-yilda — 35 502 ta.	2020 — 2022-yillar 2020 — 2022-yillar	“Hududgazta’minot” AJning o‘z mablag‘lari	“Hududgazta’minot” AJ *(B. Eshmuratov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*
28.	Suv resurslari, gidrometriya va dispetcherlik xizmati faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hududda joriy etish.	1. Suv resurslari, gidrometriya va dispetcherlik xizmatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlash. 2. Suv resurslari, gidrometriya va dispetcherlik xizmati faoliyatiga suv xo‘jaligi yagona axborot tizimi, suvdan	2022-yil yanvar 2022-yil fevral	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida va mahalliy budjetdan tashqari mablag‘lar, xorijiy investitsiyalar va grantlar	Suv xo‘jaligi vazirligi *(Sh. Xamrayev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*

		foydalanish axborot tizimi, davlat suv kadastri kabi axborot tizimlarini hamda tegishli ma’lumotlar bazalarini joriy etish. 3. Suv resurslari, gidrometriya va dispetcherlik xizmati xodimlarini axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va ma’lumotlar bazalaridan foydalanish bo‘yicha o‘qitish.	2022-yil fevral — may		
29.	Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi doirasida tashkil etilayotgan Agroxizmatlar markazlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.	1. Agroxizmatlar markazlarini optik liniyali aloqa kanallariga ulanishni ta’minlash. 2. Agroxizmatlar markazlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlash. 3. Agroxizmatlar markazlari xodimlarini axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va ma’lumotlar bazalaridan foydalanish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish.	2021-yil yanvar 2021-yil dekabr 2022-yil yanvar	Xalqaro moliya institutlarining mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Qishloq xo‘jaligi vazirligi *(J. Xodjayev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*
30.	Suv omborlari va irrigatsiya tizimlarida suv resurslaridan foydalanishning real vaqt rejimida monitoring qilish va hisobini yuritish bo‘yicha “aqlli” tizimlarini hududda joriy etish.	1. Suv omborlari, respublika va tumanlararo irrigatsiya tizimlari, tuman irrigatsiya tizimlarida 569 ta avtomatlashtirilgan qurilmalarni o‘rnatish joylarini aniqlash. 2. Avtomatlashtirilgan qurilmalarni bosqichma-bosqich o‘rnatish: 2021-y. — 228 ta;	2020-yil dekabr 2020 — 2022-yillar	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar, xorijiy investitsiyalar va grantlar	Suv xo‘jaligi vazirligi *(Sh. Xamrayev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*

		2022-y. — 341 ta.			
31.	Suv nasos stansiyalarida suv iste’moli hajmini monitoring qilish hamda elektr energiyasi sarfini “onlayn” nazorat qilish avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish.	1. 189 ta nasos stansiyalarida suv iste’moli hajmini monitoring qilish hamda elektr energiyasi sarfini “onlayn” nazorat qilish bo‘yicha avtomatlashtirilgan qurilmalarni o‘rnatish joylarini aniqlash. 2. Avtomatlashtirilgan qurilmalarni bosqichma-bosqich o‘rnatish: 2021-y. — 62 ta; 2022-y. — 123 ta.	2021-yil yanvar 2021-2022-yillar	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar, xorijiy investitsiyalar va grantlar	Suv xo‘jaligi vazirligi *(Sh. Xamrayev)*, Energetika vazirligi *(A. Sultanov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*
32.	Meliorativ kuzatish quduqlarida yerlarning meliorativ holati, sizot suvlarning sathlari va minerallashuvini avtomatlashtirilgan holda monitoring qilish tizimini hududda joriy etish.	1. 528 ta meliorativ kuzatuv quduqlariga avtomatlashtirilgan monitoring qilish qurilmalarini o‘rnatish joylarini aniqlash. 2. Monitoring qilish qurilmalarini bosqichma-bosqich o‘rnatish: 2020-y. — 217 ta; 2021-y. — 311 ta.	2021-yil fevral 2020 — 2022-yillar	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar, xorijiy investitsiyalar va grantlar	Suv xo‘jaligi vazirligi *(Sh. Xamrayev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*
33.	Paxta-to‘qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilishga ko‘maklashish.	1. Paxta-to‘qimachilik klasterlari texnikalarining agrotexnik tadbirlarni “onlayn” nazorat qilish tizimlarini joriy qilish. 2. Paxta-to‘qimachilik klasterlari ekin maydonlarini sug‘orish jarayonlarini avtomatlashtirish. 3. Paxta-to‘qimachilik klasterlarining moliyaviy-xo‘jalik jarayonlarini	2021-yil mart 2021-yil may 2021-yil maydan boshlab	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Paxta-to‘qimachilik klasterlari, Paxta-to‘qimachilik uyushmasi, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*

		avtomatlashtirishga qaratilgan axborot tizimni joriy etish.			
34.	Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini identifikatsiyalash, ularning harakatini kuzatish va monitoring qilish axborot tizimida qishloq xo‘jaligi hayvonlarning ma’lumotlar bazasini hudud bo‘yicha shakllantirish.	1. Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini tasdiqlangan pasportlarga muvofiq xatlovdan o‘tkazish. 2. Xatlov natijalariga ko‘ra qishloq xo‘jaligi hayvonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini identifikatsiyalash, ularning harakatini kuzatish va monitoring qilish tizimi”ga kiritish va yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish. 3. Yagona ma’lumotlar bazasini yangilab borish.	2021-yil yanvar — iyun 2021-yil iyul-avgust doimiy	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida va mahalliy budjetdan tashqari mablag‘lar	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi *(B. Norqobilov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*
35.	Qishloq xo‘jaligida mexanizatsiya xizmatlari ko‘rsatishning elektron hisobini yuritish va onlayn monitoring qilish tizimini hududda joriy etish.	1. Qishloq xo‘jaligi texnikalarida GPS qurilmalari hamda yoqilg‘i sarfini nazorat qilish, paxta terish kombaynlari bunkerlarida to‘lganlik holatini nazorat qiluvchi datchiklarni o‘rnatish. 2. Qishloq xo‘jaligi texnikalari kompleksini boshqarishning axborot tizimini joriy etish va uni o‘rnatilgan qurilma va datchiklar bilan integratsiya qilish.	2021-yil yanvar 2021-yil mart	Ijrochilar mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, “O‘zagroservis” AJ *(R. Xayitov)*, Qishloq xo‘jaligi klasterlari, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*
36.	Iste’mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasi hajmini hisobga olish	1. Ishlab chiqarishda elektron o‘lchov uskunalarini va hisobga olish va qayd etish vositalarini o‘rnatish:	2021-yil yanvar 2022-yil yanvar	Ijrochilar mablag‘lari	Iste’mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar,

	tizimi hamda uzumzorlarning yagona reyestri axborot tizimini hududda joriy etish.	iste’mol va texnik etil spirti ishlab chiqaruvchilar; alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar. 2. vositalariga real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimi (GPS) hamda elektron hisoblagich uskunalarini o‘rnatish: iste’mol va texnik etil spirti ishlab chiqaruvchilar; alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.	2021-yil iyul 2022-yil 1-yanvar		Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*
37.	Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish jarayonlariga buyumlar interneti (IoT) texnologiyalaridan foydalangan holda “aqlli dala” apparat dasturiy kompleks tizimlarini hududda joriy etish.	1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlariga elektron agrometeostansiyalar, yer namligi va haroratini o‘lchovchi datchiklar, sug‘orish jarayonlarini boshqaruvchi uskunalarni o‘rnatish. 2. “Aqlli dala” apparat dasturiy kompleks tizimlarini boshqarishga qaratilgan dasturiy mahsulotni joriy etish va qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda fermer xo‘jaliklarini mazkur dasturiy mahsulotdan foydalanish bo‘yicha o‘qitishini tashkil etish.	2022-yil iyun doimiy	Qishloq xo‘jaligi korxonalari va fermer xo‘jaliklarning o‘z mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Qishloq xo‘jaligi vazirligi *(J. Xodjayev)*, Suv xo‘jaligi vazirligi *(Sh. Xamrayev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*, qishloq xo‘jaligi korxonalari va fermer xo‘jaliklari
III. Hududlarda raqamli texnologiyalar sohasini rivojlantirish hamda xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish					
38.	Qoraqalpog‘iston Respublikasida hokimlar, davlat organlari va	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi	har yili 1-dekabrga qadar	Mahalliy budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

	tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish uchun Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filialini biriktirish.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali bilan birgalikda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish yuzasidan hududlar kesimida tarmoq jadvallarini tasdiqlash.	keyingi yil uchun		*(K. Sariyev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali *(B. Kaipbergenov)*
39.	Har bir shahar va tumanlarda raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarini ochish: 2020-yilda — 8 ta. 2021-yilda — 5 ta.	1. O‘quv markazlarini joylashtirish uchun zarur binolarni aniqlash. 2. O‘quv markazlarining joylarini mukammal ta’mirlashni tashkil etish. 3. O‘quv markazlar binolarini ta’mirlash, zarur kompyuter texnikasi va inventarlar bilan ta’minlash. 4. Raqamli texnologiyalar yo‘nalishida, jumladan autsorsing xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xorijiy o‘quv dasturlarini mahalliylashtirish.	2020-2021-yillar 2020-yil iyun jadval asosida jadval asosida	Axborot texnologiyalari vazirligi, “O‘zbektelekom” AK, “O‘zbekiston pochtasi” AJ, tuman va shahar hokimliklari mablag‘lari	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi *(F. Ibragimov)*
40.	Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy filialini tashkil etish.	1. Texnopark hududiy filialini qurish bo‘yicha yer uchastkasini ajratish hamda filial binosini qurish bo‘yicha buyurtmachi, bosh loyihalash va pudratchi tashkilotlarni	2020-yil oktabr	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Dasturiy mahsulotlar

		o‘rnatilgan tartibda belgilash. 2. Texnopark hududiy filiali binosini qurish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. 3. Texnopark hududiy filiali binosi qurilishini yakunlash.	2020-yil noyabr 2021-yil iyul		va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi *(F. Ibragimov)*
41.	Har bir shahar va tumanlarda tashkil etilgan raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarida o‘quv kurslarini tashkil etish.	1. Umumta’lim maktablarining 5 — 11 sinflari o‘quvchilarini o‘qitishni tashkil qilish. 2. Umumta’lim maktablarining informatika fani o‘qituvchilariga kurslar tashkil etish. 3. Aholi talabidan kelib chiqib kurslar tashkil etish. 4. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining axborot texnologiyalari bo‘yicha malakalarini oshirish uchun kurslar tashkil etish.	jadval asosida jadval asosida ehtiyojdan kelib chiqib jadval asosida	-	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi *(F. Ibragimov)*
42.	Maktablarda “Bir million dasturchi” loyihasini keng hududda joriy qilish.	1. Umumta’lim maktablarining 7 — 11 sinflari o‘quvchilarini “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida dasturlash tillariga o‘qitishni tashkil qilish. 2. O‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan o‘quvchilarga Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining	2021-yil dekabr	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar	Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi

		IT-akademiyasida tahsil olishlari uchun maxsus chegirmalar asosida yo‘llanma berish tizimini yaratish.			*(F. Ibragimov)*
43.	Oliy ta’lim muassasalari talabalarini, akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar o‘quvchilarini “Bir million dasturchi” loyihasiga keng jalb qilish.	1. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida dasturni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchi sertifikatini olgan talaba va o‘quvchilar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Oliy ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar o‘quvchilari informatika fani o‘qituvchilarini “Bir million dasturchi” loyihasiga keng jalb qilish orqali ishtirokchilar sonini oshirish.	2020-yil oktabr doimiy	-	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov), Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi *(F. Ibragimov)*
44.	Informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish.	1. Ixtisoslashtirilgan maktablar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Ixtisoslashtirilgan maktablar binolari, moddiy-texnik va o‘quv-uslubiy ta’minotining amaldagi holatini to‘liq xatlovdan o‘tkazish. 3. Xatlov natijalaridan kelib chiqib, ixtisoslashtirilgan maktablarning bino va inshootlarini mukammal ta’mirlash va rekonstruksiya qilish bo‘yicha	2020 — 2023-yillar	Davlat budjetidan va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida, budjetdan tashqari mablag‘lar, ijrochilar mablag‘lari	Xalq ta’lim vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*

		takliflar ishlab chiqish. 4. Ta’mirtalab bino va inshootlarni rekonstruksiya yoki ta’mirlash, ixtisoslashtirilgan maktablarni zamonaviy kompyuter texnikalari va o‘quv mebellari bilan jihozlash ishlarining moliyalashtirish manbasi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.			
45.	Suv xo‘jaligi sohasi mutaxassislarining raqamli texnologiyalardan, jumladan sohaga joriy etilgan axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va ma’lumotlar bazalaridan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirish yo‘nalishida o‘quv kurslari va amaliy treninglarni hududda tashkil etish.	1. Suv xo‘jaligi sohasi mutaxassislarini raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarida sohaga joriy etilgan axborot tizimlari va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha o‘qitish. 2. Suv xo‘jaligi sohasi respublikada joriy etilgan suv resurslarini monitoring va nazorat qilish	2021-yil iyun 2021-yil avgust	Suv xo‘jaligi vazirligi mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev)*, Suv xo‘jaligi vazirligi *(Sh. Xamrayev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Q. Yuldashev)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga
2a-ILOVA

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida 2020-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bo‘zatov tumanida raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish

“YO‘L XARITASI”

Shaxsan mas’ul: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi (K. Sariyev), Axborot texnologiyalari vazirining birinchi o‘rinbosari (O. Pekos), Bo‘zatov tumani hokimi (M. Qaypanov), “O‘zbektelekom” AK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali direktori (K. Tajenov)

T/r	Chora-tadbir nomi	Muddati	Mas’ul ijrochilar	Moliyalashtirish manbai	Loyiha qiymati, mln. so‘m*
Jami chora-tadbirlar soni: 34					**3 440,0**

I. Telekommunikatsiya infratuzilmasi va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish					
1	Zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlarini kengaytirish maqsadida keng polosali telekommunikatsiya tarmog‘ini **640 port**ga kengaytirish.	2020-yil noyabr	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*, Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(K. Xalmuratov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	105,0
2	Telekommunikatsiya tarmog‘ini kengaytirish maqsadida **10 km** optik tolali aloqa kabellarini qurish. Jumladan: **6 km**; **2 km**; **2 km**.	2020-yil oktabr noyabr dekabr	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*, Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(K. Xalmuratov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	40,0
3	**2 ta** *(QOP Porlitau, QOP Qaraqalpaq)* sog‘liqni saqlash muassasalarigacha optik tolali aloqa liniyalarini qurish va yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishni tashkil qilish.	2020-yil dekabr	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*, Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(K. Xalmuratov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	60,0
4	**2 ta** mahalla fuqarolar yig‘inlarigacha optik tolali aloqa liniyalarini qurish va yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishni tashkil qilish. Jumladan: **1 ta;** **1 ta.**	2020-yil noyabr dekabr	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*, Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(K. Xalmuratov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	15,0
5	“Ucell” mobil aloqa operatorining tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish. **1 ta** mavjud mobil aloqa baza stansiyalarini modernizatsiya qilish.	2020-yil oktabr	Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*, “Coscom” MCHJ *(B. Jumagulov)*	“Coscom” MCHJ XK mablag‘lari	100,0
6	“Uzmobile” mobil aloqa operatorining tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish.	2020-yil oktabr noyabr	Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*, “O‘zmobayl” filiali	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	2 100,0

	4 ta yangi mobil aloqa baza stansiyalarini o‘rnatish. **1 ta** mavjud mobil aloqa baza stansiyalarini modernizatsiya qilish. Jumladan: **1 ta** yangi va **1 ta** modernizatsiya; **1 ta** yangi; **2 ta** yangi.	dekabr	*(I. Saymanov)*		
7	“Mobi uz” mobil aloqa operatorining tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish. **3 ta** mavjud mobil aloqa baza stansiyalarini modernizatsiya qilish.	2020-yil oktabr	Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev),* “UMS” MCHJ *(I. Kim)*	“UMS” MCHJ mablag‘lari	300,0
II. Davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish					
2.1. “Mahalla” yagona axborot tizimi					
8	**Mahalla fuqarolar yig‘inlari obyektlarini moddiy texnika bilan ta’minlash** maqsadida **5** ta **mahalla fuqarolar yig‘inlari obyektlarini** kerakli kompyuter qurilmalari bilan jihozlash: **5 ta** kompyuter texnikalari bilan ta’minlash; **5 ta** boshqa orgtexnikalari bilan ta’minlash.	2020-yil noyabr	Qoraqalpog‘iston respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi *(S. Turmanov),* Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida va budjetdan tashqari mablag‘lar	50,0
9	Tizimni tumandagi **5 ta** mahalla fuqarolari yig‘inlarida sinov tarzda joriy etish va kelgusida tuman hududida to‘liq joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish.	2020-yil noyabrdan boshlab reja jadvalga asosan	Qoraqalpog‘iston respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi *(S. Turmanov),* Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	-	-
2.2. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishni takomillashtirish					

1	Jismoniy va yuridik shaxslarga interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida tuman pochta aloqasi bo‘limida xizmatlarni tashkil etish.	2020-yil dekabr	Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*, Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*, “Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi *(B. Ziyayev)*, “O‘zbekiston pochtasi” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali *(Q. Razzakov)*	Ijrochilar mablag‘lari	Loyiha-smeta hujjatlari asosida
III. Ijtimoiy sohada axborot texnologiyalari					
1	**3 ta** umumta’lim maktablarigacha **7,5 km** optik tolali aloqa liniyalarini qurish.	2020-yil dekabr	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*, Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(K. Xalmuratov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	30,0
1	**11 ta** umumta’lim maktablarigacha qurilgan optik tolali aloqa liniyalariga oxirlovchi qurilmalarni o‘rnatish va telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish. Jumladan: **1 ta**; **5 ta**; **5 ta**.	2020-yil oktabr noyabr dekabr	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*, Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(K. Xalmuratov)*	Xalq ta’limi vazirligi mablag‘lari, “O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	60,0
1	**2 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarigacha optik tolali aloqa liniyalarini qurish va yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishni tashkil qilish.	2020-yil noyabr	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*, Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(K. Xalmuratov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	10,0
3.1. “Bolalar bog‘chasi” namunaviy axborot tizimi					
1	Tumandagi maktabgacha ta’lim muassasalarini kerakli kompyuter va videokuzatuv	2020-yil noyabr	Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida va budjetdan tashqari mablag‘lar	70,0

	moslamalari bilan jihozlash. **7 ta** kompyuter texnikalari bilan ta’minlash. **14 ta** videokuzatuv moslamalari bilan ta’minlash. **7 ta** orgtexnikalari bilan ta’minlash.		maktabgacha ta’lim vazirligi *(J. Usnatdinova),* Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*		
1	Tizimni tumandagi **7 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarida sinov tarzida joriy etish. **2 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarini tizimga ulash. **5 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarini tizimga ulash.	2020-yil noyabr dekabr	Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi *(J. Usnatdinova)*	-	-
1	Tizimdan foydalanishga o‘qitish masalalari. **2 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarini xodimlarni o‘qitish. **5 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarini xodimlarni o‘qitish.	2020-yil noyabr dekabr	Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi *(J. Usnatdinova)*	Mahalliy budjet mablag‘lari	Alohida smeta asosida
3.2. “Elektron kundalik” yagona tizimi					
1	Tumandagi maktablarini kerakli kompyuter qurilmalari bilan jihozlash. **10** ta kompyuter texnikalari bilan ta’minlash; **20** ta kompyuter texnikalari bilan ta’minlash. **15** ta boshqa orgtexnikalari bilan ta’minlash.	2020 yil oktabr dekabr dekabr	Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov),* “O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*	Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida va budjetdan tashqari mablag‘lar	170,0
1	Tizimni tumandagi **15 ta** maktablarda sinov tarzida joriy etish. **5 ta** maktablarni tizimga ulash. **10 ta** maktablarni tizimga ulash.	2020 yil noyabr dekabr	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov),* Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	-	-

1	Tizimdan foydalanishga o‘qitish masalalari. **5 ta** maktablar o‘qituvchilarni o‘qitish. **10 ta** maktablar o‘qituvchilarni o‘qitish.	2020 yil noyabr dekabr	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov)*, Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	-	-
3.3. “Elektron poliklinika” axborot tizimi					
2	Tumandagi 1 ta sog‘liqni saqlash muassasalarini zarur kompyuter texnika va qurilmalar (printer, elektron tablo, POS printer va boshqalar) bilan jihozlash: 2 ta kompyuter texnikalari bilan ta’minlash va lokal hisoblash tarmog‘ini tashkil etish *(Bemorlarni qabul qilish uchun mo‘ljallangan shifokorlar xonasi sonidan kelib chiqqan holda kamida 1 tadan kompyuter texnikasi)*; bemorlarni ro‘yxatga olish bo‘limi uchun 1 ta POS printerlar *(bemorlarni ro‘yxatga oluvchi hamshiralar sonidan kelib chiqqan holda kamida 1 ta POS printer)*; elektron navbatlarni kuzatib borish uchun 2 ta elektron tablolar *(sog‘liqni saqlash muassasasi binosining qavatlari sonidan kelib chiqqan holda kamida 1 ta elektron tablo);* tibbiyot hisobotlari hamda ma’lumotnomalarini chiqarish uchun 3 ta printer uskunalari *(zaruratga ko‘ra)*.	2020 yil dekabr	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Xamrayev)*, Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	Sog‘liqni saqlash vazirligi mablag‘lari	30,0
2	Tizimni tumandagi 1 ta sog‘liqni saqlash	2020-yil dekabr	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash	-	-

	muassasasida sinov tarzida joriy etish.		vazirligi *(A. Xamrayev)*, Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*, Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*		
2	Tizimdan foydalanish bo‘yicha mas’ul xodimlarni o‘qitish.	2020-yil dekabrdan boshlab doimiy	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Xamrayev)*, Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	-	-
IV. Kommunal xo‘jaligi sohasida axborot tizimlarini joriy etish					
4.1. Tabiiy va suyultirilgan iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi					
2	**Tabiiy gaz** iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish: **1 967 ta** tabiiy gazning zamonaviy hisoblagichlarni xarid qilish va joylarga yetkazish; Zamonaviy hisoblagichlarni **1 924 ta** jismoniy va **43 ta** yuridik shaxslarga o‘rnatish va ishga tushirish; Hisoblagich o‘rnatilgan **1 967 ta** iste’molchilarni billing tizimiga ulash.	2020 yil oktabr noyabr dekabr	Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*, *“Hududgaz”* Qoraqalpog‘iston gaz ta’minoti filiali *(X. Aymanov)*	“Hududgazta’minot” AJ mablag‘i va bank kreditlari	Loyiha-smeta hujjatlari asosida
4.2. Elektr energiyasi iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish					
2	Iste’molchilarga **3 875 ta** elektr energiyasini hisobga olish uskunalarini (elektr hisoblagichlarni) o‘rnatish, jumladan: elektr hisoblagich 1 fazali – **3 612** ta; elektr hisoblagich 3 fazali – **263** ta.	2020-yil oktabr	Bo‘zatov tumani elektr ta’minoti korxonasi *(E. Bayjanov)*, Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan

2	Hisoblagichlardan elektr iste'moli to‘g‘risidagi ma'lumotlarni jamlovchi va uzatuvchi **137 ta** qurilmalarni (konsentrator) o‘rnatish.	2020-yil noyabr	Bo‘zatov tumani elektr ta'minoti korxonasi *(E. Bayjanov)*, Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan
2	Taqsimlash punkti va transformatorlarga **137 ta** elektr hisoblagichlarini o‘rnatish.	2020-yil dekabr	Bo‘zatov tumani elektr ta'minoti korxonasi *(E. Bayjanov)*, Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan
2	Hisoblagich o‘rnatilgan **3 875 ta** iste'molchilarni billing tizimiga ulash.	2020-yil dekabr	Bo‘zatov tumani elektr ta'minoti korxonasi *(E. Bayjanov)*, Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	-
V. Qishloq xo‘jaligi sohasida axborot tizimlarini joriy etish					
5.1. “Sutni qayta ishlash” kompleks axborot tizimi					
2	Tizimni joriy etish uchun pilot fermer xo‘jaligini tanlab olish. Kerakli texnologiyalar va jihozlar bilan ta'minlash. Tizimni bosqichma-bosqich joriy qilish.	2020-yil dekabr reja jadvalga asosan	Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi *(A. Yakubov)*	Tadbirkor mablag‘lari	Loyiha-smeta hujjatlari asosida
5.2. Chorva mollarni nazoratga olish tizimi					
2	Fermer xo‘jaligida boqilayotgan qora mollar ro‘yxatini yuritish. Chorva mollarini ro‘yxatini yuritishda Bo‘zatov tumanida boqilayotgan qora mollar, qo‘y-echki, yilqi va parrandalarning sonini yuritish.	2020-yil oktabr 2020-yil dekabr	Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi *(A. Yakubov)*	Tadbirkor mablag‘lari	Loyiha-smeta hujjatlari asosida
5.3. “Aqlli issiqxona” kompleks axborot tizimi					
3	Tizimni tuman hududidagi issiqxonalarda joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. Grafikka asosan tizimni bosqichma-	2020-yil oktabr reja jadvalga asosan	Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi	Tadbirkor mablag‘lari	Loyiha-smeta hujjatlari asosida

	bosqich joriy etish hamda issiqxonalarini kerakli jihozlar bilan ta’minlash.		*(A. Yakubov)*		
VI. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida mutaxassislarni tayyorlash					
6.1. Informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab					
3	Informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish bo‘ycha, shu jumladan xarajatlarni moliyalashtirishning aniq mexanizmlarini nazarda tutuvchi taklif tayyorlash. Ixtisoslashtirilgan maktablar binolari, moddiy-texnik va o‘quv-uslubiy ta’minotining amaldagi holatini to‘liq xatlovdan o‘tkazish. Ixtisoslashtirilgan maktablarni zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi bilan jihozlash, shuningdek, ularni o‘quv adabiyotlari, uslubiy qo‘llanmalar va boshqa vositalar bilan ta’minlash bo‘yicha namunaviy loyihalar va me’yorlarni tasdiqlash.	2020-yil dekabr Alohida reja asosida	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*, Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov)*, TATU Nukus filiali *(B. Kaypbergenov)*	Mahalliy budjet daromadlarining rejadan orttirib bajarilgan qismi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar	Loyiha-smeta hujjatlari asosida
6.2. Raqamli texnologiyalarga o‘qitish hududiy o‘quv markazi					
3	Raqamli texnologiyalarga o‘qitish hududiy o‘quv markazini tashkil etish *(O‘quv markazi Bo‘zatov tumani Qurilishchi ko‘chasi manzildagi “O‘zbektelekom” AK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali Bo‘zatov TTB binosida)*.	2020-yil noyabr	Bo‘zatov tumani hokimligi *(M. Qaypanov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, “O‘zbektelekom” AK *(N. Xasanov)*,	Ijrochilar mablag‘lari	300,0

	O‘quv markazi binosini mukammal ta’mirlashni tashkil etish va zarur kompyuter texnikasi va inventarlar bilan ta’minlash. O‘quv markazini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash.		“IT-park” direksiyasi *(F. Ibragimov)*		
3	O‘quv markazlarida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining axborot texnologiyalari bo‘yicha malakalarini oshirish uchun kurslar tashkil etish.	2020-yil oktabr	Bo‘zatov tumani hokimi *(M. Qaypanov)*, Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)* TATU Nukus filiali *(B. Kaypbergenov)*	Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida va budjetdan tashqari mablag‘lar	Alohida hisob-kitoblarga asosan
3	TATU Nukus filiali professor-o‘qituvchilarini tuman raqamli texnologiyalar o‘quv markazlariga jalb etish.	2021-yil fevral	Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*, Bo‘zatov tumani hokimi *(M. Qaypanov)*, TATU Nukus filiali *(B. Kaypbergenov)*	-	-

* Yo‘l xaritasida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish xarajatlariga hisob-kitoblarga asosan aniqlik kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga
2b-ILOVA

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida 2021-yil I choragida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahrida raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish

“YO‘L XARITASI”

Shaxsan mas’ul: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi (K. Sariyev), Axborot texnologiyalari vazirining birinchi o‘rinbosari (O. Pekos), Nukus shahri hokimi (P. Toreshov), “O‘zbektelekom” AK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali direktori (K. Tajenov)

T/r	Chora-tadbir nomi	Muddati	Mas’ul ijrochilar	Moliyalashtirish manbai	Loyiha qiymati, mln. so‘m*
Jami chora-tadbirlar soni: 23					**2 665,0**
I. Telekommunikatsiya infratuzilmasi va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish					
1	Zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlarini kengaytirish maqsadida	2021-yil yanvar	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	85,0

	keng polosali telekommunikatsiya tarmog‘ini **512 port**ga kengaytirish.		Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(A. Bijanov)*		
2	Telekommunikatsiya tarmog‘ini kengaytirish maqsadida **24 km** optik tolali aloqa kabellarini qurish. Jumladan: **10 km;** **12 km;** **2 km.**	2021-yil yanvar fevral mart	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*, Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(A. Bijanov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	100,0
3	“O‘zbektelekom” AK “O‘zmobayl” filiali baza stansiyalariga qadar **2,2 km** optik tolali aloqa kabellarini qurish. Jumladan: **1 km;** **1,2 km.**	2021-yil yanvar fevral	“O‘zbektelekom” AK filiali *(Q. Tajenov)*, Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(A. Bijanov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	10,0
4	“Coscom” MCHJ tomonidan **1 ta** mavjud mobil aloqa baza stansiyasini modernizatsiya qilish.	2021-yil yanvar	Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*, “Coscom” MCHJ *(B. Jumagulov)*	“Coscom” MCHJ XK mablag‘lari	100,0
5	“O‘zbektelekom” AK “O‘zmobayl” filiali tomonidan **1 ta** yangi mobil aloqa baza stansiyalarini o‘rnatish.	2021-yil mart	Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*, “O‘zbektelekom” AK “O‘zmobayl” filiali *(I. Saymanov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	500,0
6	“UMS” MCHJ tomonidan **2 ta** mavjud mobil aloqa baza stansiyalarini modernizatsiya qilish.	2021-yil yanvar	Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*, “UMS” MCHJ *(I. Kim)*	“UMS” MCHJ mablag‘lari	200,0
II. Davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish					
2.1. “Mahalla” yagona axborot tizimini joriy etish.					
7	Tizimni sinov tarzda **15 ta** mahallada joriy etish va kelgusida shahar hududida to‘liq joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. Grafikka asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish.	2021-yil yanvar reja jadvalga asosan	Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*, Qoraqalpog‘iston respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi *(S. Turmanov)*	Mahalliy budjet mablag‘lari	Smeta hujjatlariga asosan

2.2. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishni takomillashtirish					
8	Jismoniy va yuridik shaxslarga interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida tuman pochta aloqasi bo‘limida xizmatlarni tashkil etish.	2021-yil mart	Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*, Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*, Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi *(B. Ziyayev)*, “O‘zbekiston pochtasi” AJ filiali *(K. Razzakov)*	Ijrochilar mablag‘lari	Loyiha-smeta hujjatlari asosida
III. Ijtimoiy sohada axborot texnologiyalarini joriy etish					
3.1. “Telemeditsina” tizimi					
9	Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish Respublika ilmiy markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahrida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish filialida videokonferensaloqa va “Telemeditsina” tizimini joriy etish va keyinchalik respublika miqyosidagi barcha filiallarda joriy etish bo‘yicha amaliyotni qo‘llashni ko‘zda tutish.	2021-yil fevral	Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Xamrayev)*	Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida va budjetdan tashqari mablag‘lar	1 400,0
3.2. “Elektron kundalik” yagona axborot tizimi					
1	Tizimni shahardagi **15 ta** maktablarda sinov tarzida joriy etish. **5 ta** maktablarni tizimga ulash. **10 ta** maktablarni tizimga ulash.	2021-yil yanvar fevral	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov)*, Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*	-	-
1	Tizimdan foydalanishga o‘qitish masalalari. **5 ta** maktablar o‘qituvchilarni o‘qitish. **10 ta** maktablar o‘qituvchilarni o‘qitish.	2021-yil yanvar fevral	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov)*, Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*	-	-
3.3. “Elektron poliklinika” axborot tizimi					

1	Tizimni shahardagi **10 ta** oilaviy poliklinikalarda sinov tarzida joriy etish. **3 ta** poliklinikalarni tizimga ulash (1-boskich). **7 ta** poliklinikalarni tizimga ulash (2-boskich).	2021-yil yanvar	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Xamrayev),* Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*	-	270,0
1	Tizimdan foydalanishga o‘qitish masalalari. **3 ta** poliklinikalar xodimlarni o‘qitish. **7 ta** poliklinikalar xodimlarni o‘qitish.	2021-yil fevral mart	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Xamrayev),* Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*	-	-
3.4. “I. V. Savitskiy” muzeyi 3D formatdagi ma’lumotlar bazasi					
1	“I.V. Savitskiy” muzeyi eksponatlar haqida elektron ma’lumotlar bazasini yaratish. “I.V. Savitskiy” muzeyi 3D formatdagi ma’lumotlar bazasini yaratish. Foydalanish uchun internet tarmog‘iga joylash.	2021-yil yanvar fevral mart	Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi madaniyat vazirligi *(Q. Turdiyev)*	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	Smeta hujjatlariga asosan
IV. Kommunal xo‘jaligi sohasida axborot tizimlarini joriy etish					
4.1. Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi					
1	Iste’molchilarga **4 032 ta** elektr energiyasini hisobga olish uskunalarini (elektr hisoblagichlarni) o‘rnatish.	2021-yil fevral	Nukus shahar elektr ta’minoti korxonasi *(N. Asenbayev),* Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan
1	Hisoblagichlardan elektr iste’moli to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlovchi va uzatuvchi **144 ta** qurilmalarni (konsentrator) o‘rnatish.	2021-yil yanvar	Nukus shahar elektr ta’minoti korxonasi *(N. Asenbayev),* Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan
1	Taqsimlash punkti va transformatorlarga **200 ta** elektr hisoblagichlarini o‘rnatish.	2021-yil mart	Nukus shahar elektr ta’minoti korxonasi *(N. Asenbayev),* Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan

1	Hisoblagich o‘rnatilgan **17 125 ta** iste’molchilarni billing tizimiga ulash.	2021-yil mart	Nukus shahar elektr ta’minoti korxonasi *(N. Asenbayev)*, Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan
4.2. Avtomatlashtirilgan va markazlashgan boshqaruv axborot tizimi					
1	Shaharda “Avtomatlashtirilgan va markazlashgan boshqaruv axborot tizimi”ni joriy etish bo‘yicha **66 795 ta** tabiiy gaz iste’molchilariga zamonaviy avtomatlashtirilgan gaz hisoblagichlari o‘rnatish va billing tizimiga ulash.	2021-yil mart	“Hududgaz” Qoraqalpog‘iston gaz ta’minoti filiali *(X. Aymanov)*, Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	Loyiha-smeta hujjatlari asosida
V. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida mutaxassislarni tayyorlash					
5.1. Informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab					
2	Informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni (*Nukus shahri 2-son umumta’lim maktabi*) tashkil etish. Ixtisoslashtirilgan maktablar binolari, moddiy-texnik va o‘quv-uslubiy ta’minotining amaldagi holatini to‘liq xatlovdan o‘tkazish. Ixtisoslashtirilgan maktablarni zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi bilan jihozlash, shuningdek, ularni o‘quv adabiyotlari, uslubiy qo‘llanmalar va boshqa vositalar bilan ta’minlash bo‘yicha namunaviy loyihalar va me’yorlarni tasdiqlash.	2020-yil dekabr alohida reja asosida	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, “O‘zbektelekom” AK *(N. Xasanov)*, Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov)*, TATU Nukus filiali *(B. Kaypbergenov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	Alohida hisob-kitoblarga asosan
5.2. Raqamli texnologiyalarga o‘qitish hududiy o‘quv markazi					

2	Tashkil etilgan raqamli texnologiyalar o‘quv markazida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining axborot texnologiyalari bo‘yicha malakalarini oshirish uchun kurslar tashkil etish.	2021-yil yanvardan boshlab doimiy	Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*	Mahalliy budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar	Alohida hisob-kitoblarga asosan
2	Shahardagi yoshlarni “Bir million dasturchi” loyihasiga keng jalb etish. Shahar umumta’lim maktablarning 900 ta 7 — 11 sinflari o‘quvchilarini “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida dasturlash tillariga o‘qitishni tashkil qilish. O‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan o‘quvchilarga Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining IT-akademiyasida tahsil olishlari uchun maxsus chegirmalar asosida yo‘llanma berish.	2021-yil mart doimiy	Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov)*, Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*	-	-
2	TATU Nukus filiali professor-o‘qituvchilarini raqamli texnologiyalar o‘quv markazlariga jalb etish.	2021-yil fevral	Oliy ta’lim vazirligi *(I. Madjidov)*, Nukus shahri hokimligi *(P. Toreshov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*, TATU Nukus filiali *(B. Kaypbergenov)*	-	-

* Yo‘l xaritasida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish xarajatlariga hisob-kitoblarga asosan aniqlik kiritilishi mumkin.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida 2021-yil I chorakda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxiatosh tumani raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish

“YO‘L XARITASI”

Shaxsan mas’ul: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi (K. Sariyev), Axborot texnologiyalari vazirning birinchi o‘rinbosari (O. Pekos), Taxiatosh tumani hokimi (I. Matkarimov), “O‘zbektelekom” AK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali direktori (K. Tajenov)

T/r	Chora-tadbir nomi	Muddati	Mas’ul ijrochilar	Moliyalashtirish manbai	Loyiha qiymati, mln. so‘m*
Jami chora-tadbirlar soni: 27					**1 345,0**
I. Telekommunikatsiya infratuzilmasi va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish					
1	Zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlarini kengaytirish maqsadida keng polosali telekommunikatsiya tarmog‘ini **512 port**ga kengaytirish.	2021-yil mart	Axborot texnologiyalari vazirligi hududiy boshqarmasi *(T. Bayekeyev),* “O‘zbektelekom” AK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali *(Q. Tajenov),* Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(R. Xabipov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	85,0
2	Telekommunikatsiya tarmog‘ini kengaytirish maqsadida **30 km** optik tolali aloqa kabellarini qurish. Jumladan: **10 km;** **10 km;** **10 km.**	2021-yil yanvar fevral mart	“O‘zbektelekom” AK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali *(Q. Tajenov),* Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(R. Xabipov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	120,0
3	**7 ta** mahalla fuqarolar yig‘inlarigacha optik tolali aloqa liniyalarini qurish va yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishni tashkil qilish. Jumladan: **3 ta** (Do‘stlik, Jayxun, Taxiyatosh MFYlar); **2 ta** (Aydin Jol, Orayliq MFYlari); **2 ta** (Xalqlar do‘stligi, Nurli keleshek MFYlari).	2021-yil yanvar fevral mart	“O‘zbektelekom” AK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali *(Q. Tajenov),* Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(R. Xabipov)*	Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash vazirligi mablag‘lari	50,0

4	“UMS” MCHJ tomonidan **1 ta** mavjud mobil aloqa baza stansiyalarini modernizatsiya qilish.	2021-yil fevral	Axborot texnologiyalari vazirligi hududiy boshqarmasi *(T. Bayekeyev),* “UMS” MCHJ *(I. Kim)*	“UMS” MCHJ mablag‘lari	100,0
II. Davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish					
2.1. “Mahalla” yagona axborot tizimi					
5	Tizimni sinov tarzda **13 ta** mahallada joriy etish va kelgusida tuman hududida to‘liq joriy etish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. Reja jadvalga asosan tizimni bosqichma-bosqich joriy etish.	2021-yil mart 2021-yil mart reja jadvalga asosan	Taxiatosh tumani hokimi *(I. Matkarimov),* Qoraqalpog‘iston respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri *(S. Turmanov)*	Mahalliy budjet mablag‘lari	Smeta hujjatlariga asosan
III. Ijtimoiy sohada axborot texnologiyalarini joriy qilish					
6	**3 ta** (11, 13, 14-son maktablar) umumta’lim maktablarigacha **13 km** optik tolali aloqa liniyalarini qurish.	2021-yil yanvar	“O‘zbektelekom” AK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali *(Q. Tajenov),* Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(R. Xabipov)*	“O‘zbektelekom” AK mablag‘lari	80,0
7	**16 ta** umumta’lim maktablarigacha qurilgan optik tolali aloqa liniyalariga oxirlovchi qurilmalarni o‘rnatish va belgilangan tartibda telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish. Jumladan: **14 ta** (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 12, 15, 16, 19-son maktablar); **1 ta** (21-son maktablar); **1 ta** (22-son maktablar).	2021-yil yanvar fevral mart	“O‘zbektelekom” AK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali *(Q. Tajenov),* Telekommunikatsiya bog‘lamasi *(R. Xabipov)*	Xalq ta’limi vazirligi mablag‘lari	60,0
3.1. “Bolalar bog‘chasi” namunaviy axborot tizimi					
8	Tumandagi maktabgacha ta’lim muassasalarini kerakli kompyuter va videokuzatuv	2021 yil mart	Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida va budjetdan tashqari mablag‘lar	180,0

	moslamalari bilan jihozlash: **16 ta** kompyuter texnikalari bilan ta’minlash; **32 ta** videokuzatuv moslamalari bilan ta’minlash; **16 ta** orgtexnikalari bilan ta’minlash.		maktabgacha ta’lim vaziri *(J. Usnatdinova),* Axborot texnologiyalari Boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*		
9	Tizimni tumandagi **16 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarida sinov tarzida joriy etish. **6 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarini tizimga ulash. **10 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarini tizimga ulash.	2021-yil fevral mart	Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziri *(J. Usnatdinova)*	Mahalliy budjet mablag‘lari	-
1	Tizimdan foydalanishga o‘qitish masalalari. **6 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarini xodimlarni o‘qitish. **10 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarini xodimlarni o‘qitish.	2021-yil yanvar mart	Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziri *(J. Usnatdinova)*	Mahalliy budjet mablag‘lari	-
1	Bolalarning davomati va salomatligini onlayn monitoring qilish “Bolalar bog‘chasi” axborot tizimini tumandagi mavjud **16 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarida joriy etish.	2021-yil mart	Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziri *(J. Usnatdinova)*	Mahalliy budjet mablag‘lari	-
3.2. “Elektron kundalik” yagona tizimi					
1	Tumandagi maktablarini kerakli kompyuter qurilmalari bilan jihozlash. **16 ta** kompyuter texnikalari bilan ta’minlash; **28 ta** kompyuter texnikalari bilan ta’minlash;	2021-yil fevral mart mart	Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov),* “O‘zbektelekom” AK viloyat filiali *(Q. Tajenov)*	Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida va budjetdan tashqari mablag‘lar	160,0

	22 ta boshqa orgtexnikalari bilan ta’minlash.				
1	Tizimni tumandagi **22 ta** maktablarda sinov tarzida joriy etish: **8 ta** maktablarni tizimga ulash; **14 ta** maktablarni tizimga ulash.	2021-yil fevral mart	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov),* Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov)*	-	-
1	Tizimdan foydalanishga o‘qitish masalalari: **8 ta** maktablar o‘qituvchilarni o‘qitish; **14 ta** maktablar o‘qituvchilarni o‘qitish.	2021-yil fevral mart	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov),* Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov)*	-	-
3.3. “Elektron poliklinika” axborot tizimi					
1	Tumandagi **3 ta** sog‘liqni saqlash muassasalarini zarur kompyuter texnika va qurilmalar (printer, elektron tablo, POS printer va boshqalar) bilan jihozlash: **6 ta** kompyuter texnikalari bilan ta’minlash va lokal hisoblash tarmog‘ini tashkil etish (Bemorlarni qabul qilish uchun mo‘ljallangan shifokorlar xonasi sonidan kelib chiqqan holda kamida **1 ta**dan kompyuter texnikasi); bemorlarni ro‘yxatga olish bo‘limi uchun **3 ta** POS printerlar (bemorlarni ro‘yxatga oluvchi hamshiralar sonidan kelib chiqqan holda kamida **1 ta** POS printer); elektron navbatlarni kuzatib borish uchun **8 ta** elektron tablolar (sog‘liqni saqlash muassasasi binosining qavatlari sonidan kelib	2021 yil fevral	Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Xamrayev),* Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev),* “O‘zbektelekom” AK viloyat filiali *(Q. Tajenov)*	Sog‘liqni saqlash vazirligi mablag‘lari	100,0

	chiqqan holda kamida **1 ta** elektron tablo). tibbiyot hisobotlari hamda ma’lumotnomalarini chiqarish uchun **9 ta** printer uskunalari (zaruratga ko‘ra).				
1	Tizimni tumandagi **3 ta** oilaviy poliklinikalarda sinov tarzida joriy etish. **1 ta** poliklinikalarni tizimga ulash. **2 ta** poliklinikalarni tizimga ulash.	2021-yil fevral mart	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Xamrayev),* Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov)*	-	-
1	Tizimdan foydalanish bo‘yicha **3 ta** sog‘liqni saqlash muassasalari xodimlarini o‘qitish.	2021-yil fevraldan boshlab doimiy	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Xamrayev),* Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov),* Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(T. Bayekeyev)*	-	-
IV. Kommunal xo‘jaligi sohasida axborot tizimlarini joriy etish					
4.1. Tabiiy va suyultirilgan iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi					
1	Tabiiy gaz iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish. **12 000 ta** tabiiy gazning zamonaviy hisoblagichlarni xarid qilish va joylarga yetkazish. Zamonaviy hisoblagichlarni **11 775 ta** jismoniy va **225 ta** yuridik shaxslarga o‘rnatish va ishga tushirish. Hisoblagich o‘rnatilgan **12 000 ta** iste’molchilarni billing tizimiga ulash.	2021-yil yanvar fevral mart	Taxiatosh tumani hokimi *(I. Matkarimov),* “Hududgaz” Qoraqalpog‘iston gaz ta’minoti filiali direktori *(X. Aymanov)*	“Hududgazta’minot” AJ mablag‘i va bank kreditlari	Loyiha-smeta hujjatlari asosida

4.2. Elektr energiyasi iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi					
1	Iste’molchilarga **976 ta** elektr energiyasini hisobga olish uskunalarini (elektr hisoblagichlarni) o‘rnatish, jumladan: elektr hisoblagich 1 fazali — 105 ta; elektr hisoblagich 3 fazali — 871 ta.	2020-yil oktabr	Taxiatosh tumani elektr ta’minoti korxonasi *(T. Jamalov)*, Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan
2	Hisoblagichlardan elektr iste’moli to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlovchi va uzatuvchi **211 ta** qurilmalarni (konsentrator) o‘rnatish.	2020-yil oktabr	Taxiatosh tumani elektr ta’minoti korxonasi *(T. Jamalov)*, Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan
2	Taqsimlash punkti va transformatorlarga **211 ta** elektr hisoblagichlarini o‘rnatish.	2020-yil dekabr	Taxiatosh tumani elektr ta’minoti korxonasi *(T. Jamalov)*, Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	Alohida hisob-kitoblarga asosan
2	Hisoblagich o‘rnatilgan **15 224 ta** iste’molchilarni billing tizimiga ulash.	2020-yil dekabr	Taxiatosh tumani elektr ta’minoti korxonasi *(T. Jamalov)*, Taxiatosh tumani hokimligi *(I. Matkarimov)*	Ijrochilar mablag‘lari va bank kreditlari	-
V. Qishloq xo‘jaligi sohasida axborot tizimlarini joriy etish					
5.1. Chorva mollarni nazoratga olish tizimi					
2	Fermer xo‘jaligida boqilayotgan qora mollar ro‘yxatini yuritish. Chorva mollarini ro‘yxatini yuritishda Taxiatosh tumanida boqilayotgan qora mollar, qo‘y-echki, yilqi va parrandalarning sonini yuritish.	2021-yil fevral	Taxiatosh tumani hokimi *(I. Matkarimov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi *(A. Yakubov)*	Tadbirkor mablag‘lari hisobidan	Loyiha-smeta hujjatlari asosida
VI. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida mutaxassislarni tayyorlash					
6.1. Informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab					
2	Informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib	2020-yil dekabr	Axborot texnologiyalari vaziri o‘rinbosari *(O. Pekos)*,	Mahalliy budjet daromadlarining rejadan orttirib bajarilgan qismi va	Loyiha-smeta hujjatlari asosida

	o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish bo‘yicha, shu jumladan xarajatlarni moliyalashtirishning aniq mexanizmlarini nazarda tutuvchi taklif tayyorlash. Ixtisoslashtirilgan maktablar binolari, moddiy-texnik va o‘quv-uslubiy ta’minotining amaldagi holatini to‘liq xatlovdan o‘tkazish. Ixtisoslashtirilgan maktablarni zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi bilan jihozlash, shuningdek, ularni o‘quv adabiyotlari, uslubiy qo‘llanmalar va boshqa vositalar bilan ta’minlash bo‘yicha namunaviy loyihalar va me’yorlarni tasdiqlash.	alohida reja asosida	Taxiatosh tumani hokimi *(I. Matkarimov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi *(A. Ayapov)*	qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar	
6.2. Raqamli texnologiyalarga o‘qitish hududiy o‘quv markazi					
2	Raqamli texnologiyalarga o‘qitish hududiy o‘quv markazini tashkil etish (O‘quv markazi Taxiatosh tumani, Sh. Rashidov ko‘chasi, 11-uy manzildagi “O‘zbekiston Pochtasi” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali Taxiatosh PAT binosida). O‘quv markazi binosini mukammal ta’mirlashni tashkil etish va zarur kompyuter texnikasi va inventarlar bilan ta’minlash. O‘quv markazini yuqori malakali	2021-yil mart	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos),* “O‘zbektelekom” AK *(N. Xasanov),* “IT-park” direksiyasi *(F. Ibragimov)*	Tashkilotchilar mablag‘lari hisobidan	400,0

	mutaxassislar bilan ta’minlash.				
2	O‘quv markazlarida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining axborot texnologiyalari bo‘yicha malakalarini oshirish uchun kurslar tashkil etish.	2021-yil yanvardan boshlab doimiy	Taxiatosh tumani hokimi *(I. Matkarimov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*	Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar doirasida va budjetdan tashqari mablag‘lar	10,0
2	Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nukus filiali axborot texnologiyalariga oid fanlar professor-o‘qituvchilarini tuman raqamli texnologiyalar o‘quv markazlariga jalb etish.	2020-yil dekabr	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Taxiatosh tumani hokimi *(I. Matkarimov)*, Axborot texnologiyalari boshqarmasi *(A. Buronov)*	-	-

* Yo‘l xaritasida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish xarajatlariga hisob-kitoblarga asosan aniqlik kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga
3-ILOVA

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida 2020 — 2022-yillarda Andijon viloyatini raqamli transformatsiya qilish

DASTURI

Asosiy ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Ko‘rsatkichlar miqdori		
		2020-yil	2021-yil	2022-yil
Hududlarining yuqori tezlikdagi Internet tarmog‘i bilan qamrov darajasi	foiz	75	85	96
Aholi punktlarining keng polosali mobil aloqa tarmog‘i bilan qamrov darajasi	foiz	99,6	99,8	100
Hududda bozor xizmatlari tuzilmasida IT-xizmatlar ulushi	foiz	5,1	5,5	5,8
Hududdagi dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi — IT-kompaniyalar soni	dona	10	30	60
Elektron tijorat subyektlari (tashkilotlar) soni	dona	12	20	50
Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari kurslari bitiruvchilari soni	nafar	473	3 784	7 568

Elektr va tabiiy gaz iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulangan “aqlli” hisoblagichlar ulushi	foiz	60	100	100
Suv omborlari, viloyat va tumanlararo irrigatsiya tizimlari, tuman irrigatsiya tizimlarida avtomatlashtirilgan qurilmalarni o‘rnatish	dona	—	344	239
“Aqlli dehqonchilik” elektron platformasiga qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish va tahlil qilishni yo‘lga qo‘yish	foiz	60	90	100
Qishloq xo‘jaligi texnikalarini boshqarishda sun’iy yo‘ldosh navigatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ulushini oshirish	foiz	10	30	50
“Bir million dasturchi” dasturida ishtirok etgan hududiy ta’lim muassasalari o‘quvchilari soni	ming	7,2	10,5	20,2
“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirishga yo‘naltirilishi rejalashtirilgan mahalliy budjet va mahalliy davlat hokimiyat organining budjetdan tashqari mablag‘lari hajmi	mlrd so‘m	25	32	45

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish bosqichlari	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Ijrochilar
I. Raqamli infratuzilmani kengaytirish					
1.	**Sog‘liqni saqlash muassasalarini** yuqori tezlikdagi ma’lumotlarni uzatish tarmog‘iga ulash va undan foydalanishni tashkil etish.	1. **272 ta** obyektlarga qadar optik aloqa liniyalarini tortish. 2. **272 ta** sog‘liqni saqlash muassasalarini Internet tarmog‘iga ulash. 3. Barcha sog‘liqni saqlash muassasalarida Internet tarmog‘idan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	2020 — 2022-yillar 2021-yil dekabr 2022-yil 1-yanvardan boshlab, doimiy	Telekommunikatsiya operatori mablag‘lari Mahalliy budjet	Andijon viloyati hokimligi *(Sh. Abdurahmonov)* Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*
2.	**Maktabgacha ta’lim muassasalarini** yuqori tezlikdagi ma’lumotlarni uzatish tarmog‘iga ulash va undan foydalanishni tashkil etish.	1. Obyektlarni zarur aloqa kanallari bilan ta’minlash. **262 km** optik aloqa liniyalarini qurish. 2. **459 ta** maktabgacha ta’lim muassasalarini Internet tarmog‘iga ulash. 3. Barcha maktabgacha ta’lim muassasalarida	2020 — 2022-yillar 2021-yil dekabr 2022-yil 1-yanvardan	Telekommunikatsiya operatori mablag‘lari Mahalliy budjet	Andijon viloyati hokimligi *(Sh. Abdurahmonov)* Maktabgacha ta’lim vazirligi *(A. Shin)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*

		Internet tarmog‘idan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	boshlab, doimiy		
3.	**Umumta’lim maktablarini** yuqori tezlikdagi ma’lumotlarni uzatish tarmog‘iga ulash va undan foydalanishni tashkil etish.	1. Obyektlarni zarur aloqa kanallari bilan ta’minlash. **497 km** optik aloqa liniyalarini qurish. 2. **785 ta** umumta’lim maktablarini Internet tarmog‘iga ulash. 3. Barcha umumta’lim maktablarida Internet tarmog‘idan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	2020-2021-yillar 2021-yil dekabr 2022-yil 1-yanvardan boshlab, doimiy	Telekommunikatsiya operatori mablag‘lari Mahalliy budjet	Andijon viloyati hokimligi *(Sh. Abdurahmonov)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*
4.	FTTx texnologiyasini qo‘llagan holda **keng polosali optik tarmoqlarni** kengaytirish.	1. Telekommunikatsiya uskunalarini o‘rnatish uchun joylarni rejalashtirish. 2. **1,584 mingta** keng polosali kirish portlarini o‘rnatish: 2020-y. — **384 ta port;** 2021-y. — **500 ta port;** 2022-y. — **700 ta port.** 3. Loyihani ishga tushirish.	2020-yil oktabr 2020 — 2022-yillar 2022-yil iyun	Telekommunikatsiya operator va provayderlari mablag‘lari	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*
5.	**Optik-tolali aloqa** liniyalarini qurish.	1. Uzunligi **1598 km** bo‘lgan optik-tolali aloqa liniyalarini qurish: 2020-y. — **613 km;** 2021-y. — **484 km;** 2022-y. — **501 km.** 2. Uskunalarni o‘rnatish va ishga tushirish.	2020 — 2022-yillar 2022-yil iyun	Telekommunikatsiya operator va provayderlari mablag‘lari	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*
•	Respublikadagi mavjud **teatrlarning oylik**	1. Tizimni yaratish bo‘yicha texnik	2021-yil yanvar	Madaniyat vazirligi mablag‘lari	Madaniyat vazirligi *(O. Nazarbekov),*

	va yillik repertuarlarini taqdim etuvchi veb-portal platformasini yaratish elektron do‘konlarda joylashtirish.	yo‘riqnomani ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Axborot tizimini ishlab chiqish. 3. Tizimni joriy etish hamda undan foydalanish va yuritish bo‘yicha texnik yo‘riqnomani ishlab chiqish va tasdiqlash. 4. Tizimdan foydalanish va yuritish bo‘yicha **37 ta** teatr muassasalari xodimlarini o‘qitish.	2021-yil fevral 2021-yil mart alohida reja-jadval asosida		Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*
•	O‘zbekiston **yoshlari portali**ni yaratish.	1. Loyihaoldi o‘rganishni va ma’lumotlar tahlilini amalga oshirish. 2. Loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Loyihani amalga oshirish bo‘yicha ijrochi tashkilotni aniqlash va shartnomani imzolash. 4. Yoshlar portalini bosqichma-bosqich yaratish va sinovdan o‘tkazish. 5. Yoshlar portalini uzluksiz faoliyatini ta’minlash maqsadida moddiy-texnik bazasini shakllantirish.	2020-yil oktabr 2020-yil noyabr 2020-yil dekabr 2021-yil mart 2021-yil mart	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	Yoshlar ishlari agentligi *(A. Sa’dullayev)* Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)* Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga
22-ILOVA

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi

TARKIBI

1. A.N. Aripov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, *Komissiya raisi*
2. B.B. Xodjayev — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi departament boshlig‘i, *Komissiya raisining o‘rinbosari*
3. Sh.X. Shermatov — raqamli texnologiyalar vaziri, *Komissiya raisining o‘rinbosari*
4. A.D. Tashkulov — adliya vaziri
5. I.I. Norqulov — iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o‘rinbosari
6. E.G. Karimova — maktabgacha va maktab ta’limi vaziri
7. K.A. Sharipov — oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri
8. A.A. Xudayarov — sog‘liqni saqlash vaziri
9. J.T. Mirzamahmudov — energetika vaziri
10. I.Yu. Abdurahmonov — qishloq xo‘jaligi vaziri
11. Sh.R. Xamrayev — suv xo‘jaligi vaziri
12. B.E. Zaxidov — kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri
13. Sh.S. Xidoyatov — qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri
14. I.R. Maxkamov — transport vaziri
15. B.F. Islamov — tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri
16. A.A. Tashpulatov — ichki ishlar vaziri
17. T.A. Ishmetov — Markaziy bank boshqaruvi raisi
18. S.G‘. Murodov — Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori
19. O.A. Pekos — raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari
20. F.Sh. Rustamov — Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig‘i
21. Sh.A. Vafayev — Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ijrochi direktori
22. B.X. Xaydarov — Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi direktori
23. *Lavozimi bo‘yicha* — “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasi direktori
24. Z.A. Mutalov — Vazirlar Mahkamasining Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish masalalari departamenti rahbari, *Komissiya kotibi*

Izoh: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga
23-ILOVA

Tarmoqlar va hududlarni axborot texnologiyalari sohasida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalariga

BIRIKTIRISH

T/r	Tashkilotlar	Hamkorlik yo‘nalishlari
1. Janubiy Koreya (V. Fen) — Qoraqalpog‘iston Respublikasi (K. Sariyev)		
1.1	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi	Tadbirkorlikni qo‘llab-

		quvvatlash tizimini rivojlantirish
1.2	Kadastr agentligi	Geoaxborot texnologiyalarini rivojlantirish
1.3	Moliya vazirligi	Elektron xarid va auksionlarni rivojlantirish
1.4	Gidrometeorologiya xizmati markazi	**“**Aqlli meteorologiya**”** tizimini rivojlantirish
1.5	**“**Hududiy elektr tarmoqlari**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
1.6	Kapital bozorini rivojlantirish agentligi	Qimmatli qog‘ozlar tizimini boshqarishni rivojlantirish
2. Yaponiya (G. Fazilov) — Farg‘ona viloyati (X. Bozarov)		
2.1	Transport vazirligi	**“**Aqlli transport**”** tizimini rivojlantirish
2.2	Axborot texnologiyalari vazirligi	Raqamli infratuzilmani rivojlantirish
2.4	**“**O‘zeltexsanoat**”** uyushmasi	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
2.5	**“**O‘zbekiston temir yo‘llari**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
2.6	**“**Toshshahartransxizmat**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
3. Estoniya (K. Sultanov) — Qashqadaryo viloyati (Z. Mirzayev)		
3.1	Adliya vazirligi	**“**Aqlli adolat**”** texnologiyalarini rivojlantirish
3.2	Adliya vazirligi	Davlat xizmatlarini

		ko‘rsatish tizimini rivojlantirish
3.3	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi	**“**Aqlli universitet**”** texnologiyalarini rivojlantirish
3.4	Davlat test markazi	Ta’limda imtihon tizimini rivojlantirish
4. Turkiya (A. Agzamxodjayev) — Surxondaryo viloyati (T. Bobolov)		
4.1	Qishloq xo‘jaligi vazirligi	**“**Aqlli qishloq xo‘jaligi**”** tizimini rivojlantirish
4.2	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi	**“**Aqlli qishloq xo‘jaligi**”** tizimini rivojlantirish
4.3	Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi	**“**Aqlli turizm**”** tizimini rivojlantirish
4.4	Sog‘liqni saqlash vazirligi	**“**Elektron sog‘liqni saqlash**”** tizimini rivojlantirish
4.5	**“**O‘zstandart**”** agentligi	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
4.6	**“**Uzbekistan Airways**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
4.7	**“**Uzbekistan Airports**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
5. Germaniya (N. Kasimov) — Andijon viloyati (Sh. Abdurahmonov)		
5.1	Energetika vazirligi	**“**Aqlli energetika**”** tizimini rivojlantirish
5.2	Ichki ishlar vazirligi	**“**Xavfsiz shahar**”** tizimini rivojlantirish

5.3	O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi	**“**Aqlli o‘rmon xo‘jaligi**”** tizimini rivojlantirish
5.4	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	Mulkni raqamli boshqarishni rivojlantirish
5.5	**“**O‘zavtosanoat**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
5.6	**“**O‘zbekneftgaz**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
6. Rossiya (B. Asadov) — Toshkent viloyati (R. Xolmatov)		
6.1	Qurilish vazirligi	**“**Aqlli qurilish**”** tizimini rivojlantirish
6.2	Davlat soliq qo‘mitasi	**“**Aqlli soliq**”** va markirovka tizimlarini rivojlantirish
6.3	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi	Elektron tijorat tizimini rivojlantirish
6.4	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
6.5	**“**Hududgazta’minot**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
6.6	**“**O‘zsanoatqurilishmateriallari**”** uyushmasi	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
6.7	**“**O‘zatom**”** agentligi	**“**Aqlli energetika**”** tizimini rivojlantirish
6.8	Markaziy bank	**“**Raqamli bank**”** tizimini rivojlantirish
6.9	**“**O‘zbekiston metallurgiya kombinati**”** AJ	Korxonani boshqarish

		tizimini rivojlantirish
6.10	**“**O‘zbekko‘mir**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
6.11	**“**Olmaliq kon-metallurgiya kombinati**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
7. Singapur (K. Shakirov) — Xorazm viloyati (F. Ermanov)		
7.1	Yoshlar siyosati va sport vazirligi	Kibersportni rivojlantirish
7.2	Davlat bojxona qo‘mitasi	**“**Aqlli bojxona**”** tizimini rivojlantirish
7.3	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi	Raqobat muhitini rivojlantirish
7.4	Personallashtirish agentligi	Personallashtirish tizimini rivojlantirish
8. Buyuk Britaniya (S. Rustamov) — Namangan viloyati (Sh. Abdurazakov)		
8.1	Innovatsion rivojlanish vazirligi	Startap-ekotizimini rivojlantirish
8.2	Yoshlar ishlari agentligi	Startap-ekotizimini rivojlantirish
8.3	Davlat statistika qo‘mitasi	Ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish
8.4	**“**O‘zmetkombinat**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
9. Amerika Qo‘shma Shtatlari (J. Vaxabov) — Navoiy viloyati (Q. Tursunov)		
9.1	Tashqi ishlar vazirligi	Raqamli diplomatiyani rivojlantirish
9.2	Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi	**“**Raqamli geologiya**”** tizimini rivojlantirish

9.3	**“**Navoiy kon-metallurgiya kombinati**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
9.4	**“**O‘zkimyosanoat**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
9.5	**“**O‘ztransgaz**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
9.6	Adliya vazirligi	Intellektual mulkni himoya qilish tizimini rivojlantirish
9.7	Axborot texnologiyalari vazirligi	**“**IT Park**”**larni boshqarish tizimini rivojlantirish
10. Hindiston (D. Axatov) — Buxoro viloyati (F. Umarov)		
10.1	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi	Elektron autsors xizmatlari tizimini rivojlantirish
10.2	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi	Elektron autsors xizmatlari tizimini rivojlantirish
10.3	Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
10.4	**“**O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
10.5	**“**O‘zdonmahsulot**”** AK	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
11. Fransiya (S. Rustambayev) — Sirdaryo viloyati (G‘. Mirzayev)		
11.1	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi	**“**Aqlli ekologiya**”** tizimini rivojlantirish

11.2	Madaniyat vazirligi	Raqamli madaniy merosni rivojlantirish
11.3	Suv xo‘jaligi vazirligi	**“**Aqlli suv xo‘jaligi**”** tizimini rivojlantirish
11.4	**“**O‘zbekgidroenergo**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
12. Finlyandiya (K. Sultanov) — Samarqand viloyati (E. Turdimov)		
12.1	Xalq ta’limi vazirligi	**“**Raqamli ta’lim**”** tizimini rivojlantirish
12.2	Maktabgacha ta’lim vazirligi	**“**Raqamli ta’lim**”** tizimini rivojlantirish
12.3	Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	**“**Raqamli ta’lim**”** tizimini rivojlantirish
12.4	Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi	**“**Raqamli ta’lim**”** tizimini rivojlantirish
13. Xitoy (B. Saidov) — Toshkent shahri (J. Artikxodjayev) va Jizzax viloyati (E. Saliyev)		
13.1	Favqulodda vaziyatlar vazirligi	Favqulodda vaziyatlarni monitoring va prognozlash tizimini rivojlantirish
13.2	**“**O‘zarxiv**”** agentligi	**“**Raqamli arxiv**”** tizimini rivojlantirish
13.3	**“**O‘zikkilamchiranglimetall**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish
13.4	Fanlar akademiyasi	**“**Raqamli tadqiqotlar**”** tizimini rivojlantirish
13.5	**“**O‘zagroservis**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish

13.6	**“**O‘zpaxtasanoat**”** AJ	Korxonani boshqarish tizimini rivojlantirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga
24-ILOVA

2020 — 2022-yillarda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish				
•	Startaplarni tashkil etish va rivojlantirish sohasidagi munosabatlarni, shuningdek, innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish va qo‘llash mexanizmlarini tartibga solish maqsadida **“**Startaplar to‘g‘risida**”**gi qonun loyihasini ishlab chiqish.	1. Vazirlik va idoralar hamda mahalliy va xorijiy ekspertlardan tashkil topgan ishchi guruh tuzish. 2. Xalqaro tajribani o‘rganish va tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. 3. Qonun loyihasini ishlab chiqish hamda keng jamoatchilikka muhokamaga qo‘yish. 4. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2021-yil yanvar 2021-yil may 2021-yil dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi *(I. Abduraxmonov)*, Savdo sanoat palatasi *(A. Ikramov)*, Yoshlar ishlari agentligi *(A. Sa’dullayev)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Quyidagilarni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasida ochiq ma’lumotlar sohasini yanada rivojlantirish: Ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qilinishi lozim bo‘lgan davlat va xo‘jalik organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini belgilash; davlat organlarining idoraviy axborot tizimlarini va resurslarini Ochiq ma’lumotlar portali bilan integratsiya qilish; ma’lumotlarni standartlashtirilgan shaklda yuritish, interaktiv xaritaga obyektning geografik	1. Idoralararo ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 2. O‘zbekiston Respublikasida ochiq ma’lumotlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish. 3. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil noyabr 2020-yil dekabr	Davlat statistika qo‘mitasi *(B. Begalov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, manfaatdor vazirlik va idoralar

	joylashuv ma’lumotlarini kiritish; ochiq ma’lumotlar to‘plamlarida aholi va tadbirkorlik subyektlarining ehtiyojlarini hisobga olish mexanizmi; ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini o‘z vaqtida joylashtirish va ularni yangilash ustidan nazoratni mustahkamlash; joylashtirilayotgan ochiq ma’lumotlar to‘plamlarining dolzarbligini baholash; davlat-xususiy sheriklikni mustahkamlash va mobil ilovalar ishlab chiquvchilarni faolligini rag‘batlantirish orqali ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini takomillashtirishga jalb etish.			
•	O‘zbekiston Respublikasining **“**Elektron tijorat to‘g‘risida**”**gi Qonunining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish va unda, shu jumladan quyidagilarni hisobga olish: elektron tijoratda ishlatiladigan terminlarga aniq tushunchalar berish; elektron tijoratda, biznes (V2V), yakuniy iste’molchi (V2S) uchun ham mahsulotlarni eksport va import qilish; elektron tijoratdan foydalangan holda raqamli tovarlar (dasturiy mahsulotlar, kontent mahsulotlari) va autsorsing xizmatlarini eksport va import qilish masalalarini tartibga solish.	1. Vazirlik va idoralar hamda mahalliy va xorijiy ekspertlardan tashkil topgan ishchi guruh tuzish. 2. Xalqaro tajribani o‘rganish va tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. 3. Qonun loyihasini ishlab chiqish hamda keng jamoatchilikka muhokamaga qo‘yish. 4. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil dekabr 2021-yil mart 2021-yil iyun	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Savdo-sanoat palatasi *(A. Ikramov)*, Markaziy bank *(B. Zakirov)*, Davlat soliq qo‘mitasi *(Sh. Kudbiyev)*, Davlat bojxona qo‘mitasi *(M. Azimov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)*, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi *(N. Sharipov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Telekommunikatsiya sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, shu jumladan:	1. Vazirlik va idoralar hamda telekommunikatsiya sohasida faoliyat	2020-yil oktabr 2020-yil dekabr	Axborot texnologiyalari vazirligi

	davlat-xususiy sheriklik orqali tadbirkorlik subyektlari ishtirokini kengaytirish; telekommunikatsiya inshootlarini loyihalashtirish va qurish uchun ruxsat berishni o‘n ish kuni ichida rasmiylashtirish va uning muddatini bir yil etib belgilash tartibini joriy etish; uzatgichlar quvvatini oshirishda sanitariya pasportini parallel ravishda rasmiylashtirishni hisobga olgan holda telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish uchun ruxsatnomalarni olish tartibiga o‘zgartirish kiritish; sanitariya me’yorlarini ta’minlagan holda tayanch stansiyalar antennalarining azimutlari, egilish burchaklari, balandligini o‘zgartirish bo‘yicha anketa ma’lumotlariga o‘zgartirish kiritish, sanitar pasportini taqdim etish va doimiy ruxsatni keyinchalik yangilashni hisobga olgan holda qayta qurish dalolatnomasisiz, yangi anketa asosida parallel ravishda ishga tushirishning soddalashtirilgan tartibini belgilash.	yuritayotgan operator va provayderlardan tashkil topgan ishchi guruh tuzish. 2. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish. 3. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil mart	*(J. Maxsudov)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*
•	Mobil aloqa qulayliklarini yanada oshirish choralarini ko‘rish, jumladan: texnologik betaraflik qoidalarini qo‘llash va ajratilgan radiochastota diapazonida IMT (International Mobile Telecommunications) texnologiyalarini (3G, 4G, 5G va keyingi avlod) joriy etish imkoniyatini yaratish; mobil aloqa operatorlari tomonidan radiochastota spektrdan birgalikda foydalanish imkoniyatlarini berish.	1. Telekommunikatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan operator va provayderlardan tashkil topgan ishchi guruh tuzish. 2. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish. 3. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil dekabr 2021-yil mart	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*

•	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruhning talablaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan moliyaviy xizmatlar ko‘rsatilishida identifikatsiya tizimi imkoniyatlaridan foydalanishga oid qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.	1. Idoralararo ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 2. Xalqaro tajribani o‘rganish va tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. 3. Qonun loyihasini ishlab chiqish. 4. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil noyabr 2021-yil yanvar 2021-yil mart	Markaziy bank *(M. Nurmuratov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Xalqaro tajribani o‘rgangan holda quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasida **“**Buyumlar interneti**”**ni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash: **“**Buyumlar interneti**”**ni keng joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish; **“**Buyumlar interneti**”** uchun chastota diapazonlarini ajratish; **“**Buyumlar interneti**”** texnologiyasini iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida keng joriy qilish.	1. Vazirlik va idoralar hamda mahalliy va xorijiy ekspertlardan tashkil topgan ishchi guruh tuzish. 2. Xalqaro tajribani o‘rganish va tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. 3. **“**Buyumlar interneti**”**ni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 4. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan chora-tadbirlar rejasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil dekabr 2021-yil fevral 2021-yil aprel	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, **“**O‘zeltexsanoat**”** uyushmasi *(M. Yunusov)*, Mudofaa vazirligi *(B. Kurbanov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Elektron raqamli imzo kalitlari infratuzilmasini xalqaro talablarga moslashtirish hamda uchinchi ishonchli tomon tushunchasini bulutli elektron raqamli imzoni amaliyotga joriy etishni nazarda tutgan holda O‘zbekiston Respublikasining **“**Elektron raqamli imzo to‘g‘risida**”**gi Qonunining yangi tahririni ishlab chiqish.	1. Vazirlik va idoralar hamda mahalliy va xorijiy ekspertlardan tashkil topgan ishchi guruh tuzish. 2. Xalqaro tajribani o‘rganish va tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. 3. Qonun loyihasini ishlab chiqish hamda keng jamoatchilikka muhokamaga qo‘yish. 4. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qonun loyihasini	2020-yil oktabr 2020-yil dekabr 2021-yil mart 2021-yil iyun	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, manfaatdor vazirlik va idoralar

		Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		
•	O‘zbekiston Respublikasining **“**Elektron hukumat to‘g‘risida**”**gi Qonuniga o‘zgartirish kiritish, bunda davlat xizmatlari markazlari faoliyatini tartibga solish normalariga qo‘shimchalar kiritish, ochiq ma’lumotlar portali, foydalanuvchilarning elektron identifikatsiya qilish mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, elektron hukumat loyihalarini barqaror moliyalashtirishni belgilash.	1. Vazirlik va idoralar hamda mahalliy va xorijiy ekspertlardan tashkil topgan ishchi guruh tuzish. 2. Xalqaro tajribani o‘rganish va tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. 3. Qonun loyihasini ishlab chiqish hamda keng jamoatchilikka muhokamaga qo‘yish. 4. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil dekabr 2021-yil iyun 2021-yil sentabr	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
II. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish				
•	Quyidagi kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi **“**Elektron hukumat**”** tizimining ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash yagona markazini tashkil qilish: davlat xizmatini ko‘rsatayotgan davlat idoralari va tashkilotlarining mavjud axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasi, ma’lumotlarini saqlash; ma’lumotlarni yig‘ish, to‘plash, saqlash, qayta ishlash va yuborishda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish talablarini inobatga olgan holda axborot xavfsizligini ta’minlash; keyinchalik unga barcha davlat axborot tizimlari va resurslarini o‘tkazish.	1. Xorijiy konsalting kompaniyasini aniqlash bo‘yicha tender savdolarini o‘tkazish va g‘olib kompaniya bilan shartnoma imzolash. 2. Xorijiy konsalting kompaniyasi bilan birgalikda tender hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Pudratchi kompaniyani aniqlash bo‘yicha tender savdolarini o‘tkazish va g‘olib kompaniya bilan shartnoma imzolash. 4. **“**Elektron hukumat**”**ning ma’lumotlarni qayta ishlash yagona markazini ishga tushirish.	2021-yil yanvar 2021-yil iyun 2021-yil noyabr 2022-yil aprel	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Egamberdiyev)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Quyidagilarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rish:	1. Telekommunikatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan operator va provayderlardan tashkil topgan ishchi guruh tuzish. 2. Tadqiqot o‘tkazish hamda tahliliy	2020-yil oktabr 2021-yil iyul 2021-yil dekabr	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*, **“**O‘zbektelekom**”** AK *(N. Xasanov)*

	aholini telekommunikatsiya xizmatlari bilan qamrab olinganlik darajasi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish; telekommunikatsiya operator va provayderlariga **“**oxirgi milya**”** tamoyili bo‘yicha qulay sharoitlar yaratish maqsadida takliflarni shakllantirish.	ma’lumotlarni tayyorlash. 3. **“**Oxirgi milya**”** tamoyili bo‘yicha qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflarni kiritish.		
•	Optik tolali aloqa tarmog‘i uzunligini oshirish: 2020-yilda — **50** ming km; 2022-yilda — **70** ming km.	1. Optik tolali aloqa tarmog‘i uzunligini oshirish bo‘yicha hududlar kesimida reja-jadvalni tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan reja-jadvalga asosan tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2020-yil oktabr reja-jadvalga asosan	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Aholining keng polosali internet tarmog‘i bilan qamrab olinganlik darajasini oshirish: 2020-yilda — **70** foiz; 2022-yilda — **74** foiz.	1. Aholining keng polosali internet tarmog‘i bilan qamrab olinganlik darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturiga asosan tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2020-yil oktabr chora-tadbirlar dasturiga asosan	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Barcha aholi yashash maskanlarini yuqori tezlikdagi mobil internet tarmog‘i bilan qamrab olish.	1. Barcha aholi yashash maskanlarini yuqori tezlikdagi mobil internet tarmog‘i bilan qamrab olish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturiga asosan tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2020-yil oktabr chora-tadbirlar dasturiga asosan	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Respublika hududlarida telekommunikatsiya transport va ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini 2022-yilda:	1. Respublika hududlarida telekommunikatsiya transport va ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini	2020-yil oktabr chora-tadbirlar	Axborot texnologiyalari vazirligi

	viloyat markazlarigacha **400** Gbit/sek.gacha; tuman markazlarigacha **60** Gbit/sek.gacha kengaytirish.	kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturiga asosan tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish.	dasturiga asosan	*(J. Maxsudov),* manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Internet tarmog‘i foydalanuvchilari sonini oshirish maqsadida keng polosali telekommunikatsiya tarmog‘ini kengaytirish.	1. Internet tarmog‘i foydalanuvchilari sonini oshirish maqsadida keng polosali telekommunikatsiya tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturiga asosan tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2020-yil oktabr chora-tadbirlar dasturiga asosan	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov),* manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Ko‘chib o‘tgan raqamlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarning markazlashtirilgan bazasi shakllantirilishi va ishlashini ta’minlash.	1. Loyiha bo‘yicha texnik topshiriq ishlab chiqish. 2. Loyiha doirasida dasturiy ta’minot va apparat qurilmalarini xaridi bo‘yicha tender (tanlov) o‘tkazish. 3. Ma’lumot bazasini shakllantirish va ishga tushirish.	2020-yil dekabr 2021-yil fevral 2021-yil sentabr	Axborot texnologiyalari vazirligi *(J. Maxsudov),* **“**O‘zTTBRM**”** DUK *(B. Tillabayev)*
•	Ko‘chib o‘tgan raqamlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarning markazlashtirilgan bazasi shakllantirilishi va ishlashini ta’minlash.	1. Loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish. 2. Dasturiy ta’minot va apparat qurilmalarini xarid qilish bo‘yicha tender (tanlov) o‘tkazish. 3. Ma’lumot bazasini shakllantirish va ishga tushirish.	2020-yil dekabr 2021-yil fevral 2021-yil sentabr	Axborot texnologiyalari vazirligi *(Sh. Sadikov),* **“**O‘zTTBRM**”** DUK *(B. Tillabayev)*
III. Elektron hukumatni rivojlantirish				
•	Elektron hukumat foydalanuvchilarini identifikatsiya qilishning qulay usullarini joriy etish.	1. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini tayyorlash. 2. Loyiha-texnik hujjatlarini ishlab	2020-yil noyabr 2020-yil dekabr 2021-yil yanvar	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos),* manfaatdor vazirlik va idoralar

		chiqish va ekspertizadan o‘tkazish. 3. Elektron hukumat foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish tizimini takomillashtirish. 4. Elektron hukumat foydalanuvchilarini identifikatsiya qilishning qulay usullarini bosqichma-bosqich joriy qilish.	2021-yil noyabr	
•	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida talabgorligi yuqori bo‘lgan elektron davlat xizmatlarni joriy etish hamda takomillashtirish. Jumladan, davlat xizmatlarining: 2020-yilda — **50** tasini; 2021-yilda — **60** tasini; 2022-yilda — **60** tasini elektron shaklga o‘tkazish.	1. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida talabgorligi yuqori bo‘lgan elektron davlat xizmatlarni joriy etish reja-jadvalini ishlab chiqish. 2. Reja-jadvalni tegishli idoralar bilan kelishish va o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil noyabr 2020 — 2022-yillar	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligini reytingli baholash tizimini hamda uning holatini o‘rganishni amalga oshirish tartibini ishlab chiqish.	1. Idoralararo ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 2. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish. 3. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil noyabr 2020-yil dekabr	Axborot texnologiyalari vazirligi *(Sh. Sadikov)*, **“**O‘zkomnazorat**”** inspeksiyasi *(G‘. Ziyayev)*, **“**Kiberxavfsizlik markazi**”** DUK *(D. Chichenkov)*
•	Elektron hukumat doirasida aholi va tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan davlat xizmatlari to‘g‘risida fuqarolarni elektron xabardor qilish tizimini joriy qilish.	1. Loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish. 2. Elektron xabardor qilish tizimini joriy qilish	2020-yil noyabr 2021-yil fevral	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ochiq ma’lumotlar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy etish maqsadida elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini	1. Ochiq ma’lumotlar portalining yangi talqinini ishlab chiqish bo‘yicha loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish.	2020-yil dekabr 2021-yil fevral 2021-yil iyun	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Davlat statistika qo‘mitasi *(B. Begalov)*

	moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisob raqami mablag‘lari hisobidan quyidagilarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasida ochiq ma’lumotlar portalining yangi talqinini ishlab chiqish: vazirlik va idoralardan axborot to‘plash va qayta ishlangan ma’lumotlarni mashina-o‘qiladigan shaklga aylantirish jarayonini avtomatlashtirish; ochiq ma’lumotlar to‘plamlarida aholi ehtiyojlari haqida ma’lumot to‘plash mexanizmlarini joriy etish; ma’lumotlarni vizuallashtirish elementlarini ishlab chiqish va ochiq ma’lumotlarni qulay saralash va qidirish uchun interaktiv (raqamli) xarita yaratish; portalda ochiq ma’lumotlar to‘plamlarining aktual va dolzarbligini onlayn rejimda baholash mexanizmini qo‘llash.	2. Ochiq ma’lumotlar portalining yangi talqinini ishlab chiqish bo‘yicha ijrochini aniqlash. 3. Ochiq ma’lumotlar portalining yangi talqinini ishga tushirish.		
•	Aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektron davlat xizmatlaridan foydalanishda ulardan qanoatlanganlik darajasini monitoring qilish va baholashning samarali mexanizmlarini joriy etish.	1. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanilgan davlat xizmatini baholash hamda taklif va e’tirozlar qoldirish imkoniyatini yaratish. 2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali foydalanuvchilarini qo‘llab-quvvatlash sifatini oshirish. 3. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini qo‘llab-quvvatlash xizmatiga qisqa raqam biriktirish.	2021-yil aprel doimiy ravishda 2020-yil dekabr	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*
•	Elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishda foydalanuvchilarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish hamda xizmat uchun arizalarni muddatida va	1. Elektron davlat xizmatlari portali va mobil ilovasiga tegishli qulayliklar kiritish bo‘yicha loyiha-texnik	2021-yil yanvar 2021-yil aprel	Axborot texnologiyalari vazirligi

	sifatli ko‘rib chiqishni ta’minlash nazoratini kuchaytirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini hamda uning mobil ilovasini takomillashtirish orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatish kanallarini kengaytirish.	hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish. 2. Elektron davlat xizmatlari portali va mobil ilovasi yangi talqinini ishlab chiqish va ishga tushirish.		*(O. Pekos)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Barcha ma’muriy tartibotlar va operatsion jarayonlarni raqamlashtirishni, faoliyatning ochiqligi va shaffofligini, shuningdek, davlat xizmatchisi uchun avtomatlashtirilgan ish joyini va standartlarini, videokonferensiyalar orqali uchrashuvlar o‘tkazish imkoniyatini va boshqalarni ta’minlaydigan masofadan turib ishlash uchun raqamli platformani shakllantirishni nazarda tutuvchi **“**Raqamli idora**”** loyihasini amalga oshirish.	1. Loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish. 2. **“**Raqamli idora**”** loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha ijrochini aniqlash. 3. **“**Raqamli idora**”** avtomatlash-tirilgan axborot tizimini joriy etish.	2021-yil fevral 2021-yil aprel 2022-yil noyabr	Axborot texnologiyalari vazirligi *(Sh. Sadikov)*
•	Adliya vazirligi tizimida barcha axborot tizimlarini va ma’lumotlar bazasini yagona platformada shakllantirish uchun **“**Virtual adliya**”** avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish.	1. Loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish. 2. **“**Virtual adliya**”** loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha ijrochini aniqlash. 3. **“**Virtual adliya**”** avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish.	2021-yil iyun 2021-yil avgust 2022-yil yanvar	Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(Sh. Sadikov)*
•	2021-yildan boshlab davlat idoralari va tashkilotlarning dasturiy ta’minotlari, ma’lumotlar bazalari, shu jumladan operatsion tizimlarining axborot va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan majburiy ekspertizasi tizimini joriy etish, shuningdek, ochiq kodli dasturiy ta’minotdan	1. Idoralararo ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 2. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish. 3. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil noyabr 2020-yil dekabr	**“**Kiberxavfsizlik markazi**”** DUK *(D. Chichenkov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, manfaatdor vazirlik va idoralar

	foydalanishni bosqichma-bosqich kengaytirish.			
IV. Raqamli sanoatni rivojlantirish				
•	Huquqiy jihatdan ahamiyatli elektron hujjatlarni hisobga olish va yetkazib berish yagona tizimini joriy etish.	1. Idoralararo ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 2. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish. 3. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil dekabr 2021-yil yanvar	Axborot texnologiyalari vazirligi *(Sh. Sadikov)*, **“**O‘zbekiston pochtasi**”** AJ *(A. Fayzullayev)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Xalqaro tajribani inobatga olgan holda elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot sohalari ko‘rsatkichlarining hisobini yuritish va samaradorligini baholash tartibini ishlab chiqish.	1. Idoralararo ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 2. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish. 3. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil oktabr 2020-yil noyabr 2020-yil dekabr	Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)*, Davlat statistika qo‘mitasi *(B. Begalov)*, **“**O‘zkomnazorat**”** inspeksiyasi *(G‘. Ziyayev)*
•	Elektron tijorat orqali tovarlar (xizmatlar)ni sotish bilan bog‘liq operatsiyalarni statistik hisobga olish metodologiyasini amaliyotga joriy qilish.	1. Davlat statistika kuzatuvlari shakllariga elektron tijoratni hisobga olishni ko‘zda tutuvchi o‘zgartirishlarni kiritish; 2. Xalqaro tavsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olib elektron tijorat uchun alohida iqtisodiy tasniflagich joriy etishni hisobga olgan holda elektron tijorat bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish amaliyotini takomillashtirish.	2020-yil dekabr 2021-yil dekabr	Davlat statistika qo‘mitasi *(B. Begalov)*, Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)*, Davlat soliq qo‘mitasi *(Sh. Kudbiyev)*
•	Ixtirochilik faoliyatini rag‘batlantirish, milliy ishlanmalarni patentlashni qo‘llab-quvvatlash orqali intellektual mulk huquqi sohasini tartibga solish,	1. Idoralararo ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 2. Vazirlar Mahkamasining tegishli	2021-yil fevral 2020-yil mart 2021-yil may	Intellektual mulk agentligi *(T. Abdusattorov)*, Adliya vazirligi

	mamlakatimizning innovatsion muhitini yaxshilashga hissa qo‘shuvchi foydali modellar va sanoat namunalarini ro‘yxatga olish.	qaror loyihasini ishlab chiqish. 3. O‘rnatilgan tartibda kelishilgan qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		*(B. Kuchkarov),* manfaatdor vazirlik va idoralar
•	Yirik sanoat korxonalari va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi energiya sarfi yuqori bo‘lgan korxonalarda majburiy energoauditni o‘tkazish mexanizmini joriy etish.	1. Idoralararo ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 2. Xalqaro tajribani o‘rganish va tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. 3. Energoauditni o‘tkazish mexanizmini joriy etish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2020-yil oktabr 2021-yil yanvar 2021-yil mart	Energetika vazirligi *(A. Sultanov),* Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos),* Davlat soliq qo‘mitasi *(Sh. Kudbiyev),* Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov)*
•	Sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, **“**Buyumlar interneti**”**, **“**Sun’iy intellekt**”** kabi texnologiyalar joriy etish.	1. Vazirlik va idoralar hamda yirik sanoat korxonalaridan tashkil topgan ishchi guruh tuzish. 2. Xalqaro tajribani o‘rganish va tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. 3. Energoauditni o‘tkazish mexanizmini joriy etish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2020-yil oktabr 2021-yil yanvar 2021-yil mart	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(I. Norqulov),* Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*
•	Kommunal xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish.	1. Kommunal xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning faoliyatini o‘rganish va tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash. 2. Kommunal xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2020-yil dekabr 2021-yil yanvar	Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi *(M. Saliyev),* Energetika vazirligi *(A. Sultanov),* Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*
•	Respublikaning barcha yirik shaharlarida jamoat transportlarida yo‘l haqi to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish.	1. Toshkent shahrining jamoat transportlarida yo‘l haqi to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish	2020-2021-yillar	Transport vazirligi *(I. Maxkamov),* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

		tajribasi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash. 2. Respublikaning barcha yirik shaharlarida jamoat transportlarida yo‘l haqi to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflarni kiritish.		Toshkent shahar hokimliklari
•	Respublika transport tizimini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning samarali rejalashtirish mexanizmlarini joriy etish.	1. Ryespublikaning barcha shaharlari aglameratsiyasi transport modellarini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 2. Hududlararo yo‘lovchi va yuk oqimlarining milliy transport modelini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil dekabr 2020-yil dekabr	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Transport vazirligi *(I. Maxkamov)*
•	Sug‘urta tizimini raqamlashtirish bo‘yicha elektron sug‘urta tizimini joriy qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.	1. Xalqaro tajribani o‘rganish va tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash. 2. Xalqaro tajriba asosida loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish. 3. Elektron sug‘urta tizimini joriy qilish.	2020-yil dekabr 2021-yil mart 2021-yil may	Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi *(K. Talipov),* Axborot texnologiyalari vazirligi *(O. Pekos)*
